


NOSIROVA RA'NO XAMIDOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIMDA
METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI
SHAKLLANTIRUVCHI KLASTER
VOSITASIDA BOLALARINI
MAKTABGA TAYYORLASH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRIJI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

NOSIROVA RA'NO XAMDOVNA

-13795/100-
**MAKTABGACHA TA'LIMDA
METAKOGNITIV KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRUVCHI KLASTER
VOSITASIDA BOLALARНИ MAKTABGA
TAYYORLASH**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLY TALIMA
FAN VA INNOVATSIVALAR VAZIRIJI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLY TALIMA
FAN VA INNOVATSIVALAR VAZIRIJI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

2-FILIALI

«MALIK PRINT CO»
TOSHKENT – 2021

SO'Z BOSHI

Mas'ul muharrir:
p.f.d., prof. Sh.A. Abdullayeva

Taqrizchilar:
p.f.n., dotsent X.R.Sanakulov
pffd. B.Mahmudov

Mazkur monografiyada maktabgacha ta'linda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klaster vositasida bolalarni maktabga tayyorlashning metodologik asoslari, klasterli yondashuvlarni qo'llashning ijtimoiy-pedagogik zarurati, maktabgacha yoshidagi bolalarda kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, o'quv mashq'ulotlari samara-dorligini oshirishda pedagogik ta'lim innovation klasteri komponentlaridan foydalananish vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klaster vositasida bolalarni maktabga tayyorlashning innovation metodik tizimi, oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klaster talablari asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarning maktabga tayyorligini diagnostika qiliш vazifalari keng yoritib berilgan. Monografiya pedagogika olly ta'lim muassasalari bakalavr, magistr bosqichi talabalari hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari, maktabgacha ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni analoga oshiradigan tashkilotlar va mazkur sohaga qiziquvchki keng omma uchun mo'jalangan.

Dunyoda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatı samaradorligini zamонавиy talablar asosida tashkil qilish va boshqarish, pedagog kadrlarning kompetentliligini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning uzluksiz ta'lim bilan o'zaro aloqa-dorligini belgilaydigan omillarni aniqlash bo'yicha keng ko'lam-dagi tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar zamirida maktabgacha ta'lim tashkilotlarning didaktik jarayonlarini baholash tizimini, bolalarni maktabga tayyorlash usulublarini takomillashtirish masalalari yetakchilik qilmoqda. Shu jihatdan maktabgacha ta'lim jarayonida metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klasterini qo'llash orqali bolalarni maktab ta'limga samarali tayyorlash maz-muni va texnologiyasini takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, tarbiyalanuvchilarda shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining 2021 yil 30 moyabrdagi 6-soni qarori bilan nashr etildi

maktabgacha ta'limga bolalar qamrovini oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini yaratish, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarni har tomonloma rivojlantirish maqsadida zamonaviy innovation va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan [3]. Bunda maktabgacha ta'lim sub'ektlari ehtiyojlarining qondirish, bolalarning qobiliyatlarini, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish, meta-kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning turli metodlarini qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash, ularning kompleks rivojlashini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillash-tirish hamda ta'lim sifati va samaradorligi uyg'unligini asoslovchi tizimni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda-gi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 30 sentyabr-dagi PF-5198-son Farmoni, 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261-soni qarori, 2019 yil 8 maydag'i PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2021 yil 12 apreldagi PQ-5071-soni «Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlan-tirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydag'i 391-son «Maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 11 iyundagi 487-soni «Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarori, shuningdek Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-nih sonli «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanshiga qo'yildigan davlat tatablarini», «Ilk qadam» dasturi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqaga me'yoriy-huequqiy hujatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirishda ushbu monografiya muayyan darajada xizmat qiladi.

I BO'LIM.

MAKTABGACHA TA'LIMDA METAKOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRUVCHI KLASTER VOSITASIDA BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1-§. Maktabgacha ta'linda metakognitiv ko'nikmalarni qo'llashning ijtimoiy-shakllantiruvchi klasterli yondashuvlarni qo'llashning ijtimoiy-pedagogik zarurati

Maktabgacha ta'lim bilan bog'liq ya'ni bolaning hamkorlikda o'qish faoliyatini rivojlantirish, ta'lim dasturlarini milliy tizimlarga muvofiqlashtirish, ta'lim sifatini boshqarish texnologiyalarini takomillash-tirish, maktabgacha ta'lim taskilotlaridagi didaktik jarayonlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini takomillash-tirish kabi masalalar olimlarning tadqiqotlariida bir necha o'n yillardan beri e'tirof etib kelinadi [24; 28; 29; 35; 27; 37; 78; 79].

Maktabgacha ta'lim masalasi tadqiqining murakkabligi, ko'plab yondashuvlar orqali uni o'rganishga qaratilgan alohida metodlarni talab etadi. Ayni shu sababli, maktabgacha ta'linda metakognitiv ko'nikmalarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash masalari bo'yicha ihmiy izlanishlar to'laqonlicha amalga oshirilma-ganligi mazkur monografiya ishining dolzarbigini yana bir karra isbot etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida didaktik jarayonlarni takomillashtirish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi hamda o'quv-tarbiya jarayonida ta'limming innovation shakllari va usulalarini qo'llashga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-soni «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvinu tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» Farmoni, 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-soni «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligij faoliyatini tashkil etish to'g'risida» qarori ijrosini ta'minlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston

Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishida tizim rivoji uchun asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek «2017 yil yurtimizda 15 ming 211 ta bog'cha faoliyat yuritigan bo'lsa, joriy yilda tasavvur qiling 5 ming 221 tadan mana shu joriy yilda 193 16 taga yetdi. Davlat xususiy sherkchilik mexanizmlari hamda oilaviy bog'chalarning joriy etilishi, bir qator imtiyozlari berilishi tufayli 17 mingdan ziyod nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lg'a qo'yildi. Ushbu islohatlar natijasida biz maktabgacha ta'lim qamrov darajasini 62% ga, 6 yoshli bolalar o'rtaida esa 77% yetkazishga erishdik» [18].

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga oid normativ - huquqiy hujjatlarda xususan, O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni [3] mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari, kelajak avlodning aqliy-intellektual, ma'naviy salohiyatini oshirish, komil inson tarbiyasiga e'tibor masalalari belgilanib murabbiylar awvalo jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijobchisi sifatida e'tirof etiladi.

Bugungi kunda jahonda texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojanishi davrida maktabgacha ta'limi isloh qilish, komil insomni tarbiyalash, ularga zamonaeviy ta'lim berish massalalari birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa hisoblanishi aynan, maktabgacha ta'limi isloh qilishda bolaning maktabga tayyorgarligi bilan belgilanuvchi ta'lim sifatini oshirish, ta'limga ko'yilgan zamonaeviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda ta'lim turlari va ta'lim mazmunini integratsiyalash uzlusiz ta'limi klasterlashtirish asosida rivojlanirishni taqozo qilmoqd. Yuqorida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda tadqiqot ishida klaster yondashuvni asosida maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratilganligi sababli dastlab, klaster tushunchasiga, uning tarixiy taraqqiyoti va davriy o'zgarishlar mazmuni bo'yicha keltirilgan tafsifhami tahlil etish maqsadga muvofiq.

Klaster tushunchasi birinchi marotaba iqitsodiyot sohasida

qo'llanilgan. Garvard biznes maktabi professori, iqitsodiyotdagi klaster nazarriyasinинг asoschisi M.Porter klasterning shakllanish mexanizmini o'zaro raqobatbardoshlikning o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi, deb tushunirdi hamda ushbu hankorlikning davlat iqitsodiyotidagi rolini aniqlab beedi [164].

Rus olimasi T.I.Shamova klasterni raqobatbardosh, samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan alohida sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi [209], deya tavsifaydi. L.Bespalova esa klasterni ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zinning to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta bo'taklardan iborat bo'lgan tuzilma [39], deb izohlaydi.

U.N.Xodjamqulov taddiqotida keltirilganidek «Klaster yondashuvi universallik xarakteriga ega bo'lib, uning ta'lim tizimiga tabbiq qilinishi uzlksiz ta'lim tizimida mavjud tarzoqlikni bartaraf qilish, ta'lim turdarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish, uzvilyik va uzluksizlikni qaror toptirish, o'zaro raqobat va nazorat muhitini shakllantirish, pedagogik sohada samarali vorisylikni ta'minlovchi yaxlit tizimni yaratishga asos bo'ladiv» [201].

Ta'lim sohasiga klaster yondashuvining krib kelishi innovation jarayon bo'lib, bunga umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshilishi lozim bo'lgan yangicha yondashuvlar sifatida ta'lim turdarini o'zaro manfaatlaloqadorlikning innovation-integratsion yondashuvlardagi mexanizmlarini keltirib o'tish mungkin. Ta'lim tizimiga misbatan bu kabi innovation yondashuv haqiqiy rivojlanish jarayonining mantig'iga mos kelsa, ta'lim sifati samaradorligi ortadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasida mavjud muammolarga misbatan munosib innovation yondashuvlar joriy qilinsa, mavjud vaziyatni oldindan baholay olish, hodisalarining rivojlanishini to'g'ri taxmin qilish, o'z vaqtida choralar ko'rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyati paydo bo'ladi. Ta'lim klasteri bu kabi muammolarning yechimiga misbatan to'g'ri yondashuvni qaror toptiradi. Zero, klasterli integratsiya jarayonlari yuqorida ta'kidlab o'ilganidek, moddiy, moliiyaviy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha resurslar jaib qilinganligi bilan ham eng kuchli mexanizm sanaladi.

tizimini yaratish, o'zaro ishonchni ta'minlash uchun haqiqiy rivojlanishi oldindan taxmin qilish imkonini beradi [199]. Ta'lim tizimi ning tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlari bo'lishi, mazmunli faoliyat, umumiy va maxsus boshqaruv funksiyalari, dastur, texnologiya va usullari va ishtirokchilarining kadrlar salohiyatini rivojlanitishi bilan bog'liq jarayonlar klaster muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Ta'lim klasterlarining modelлari Yevropa amaliyotida yetarli darajada mavjud bo'lib, Rossiya tajribasida klaster siyosati asosan ularni shakllantirish va rivojlanitish tamoyiliiga asoslanadi. T.I.Shamova ta'limni rivojlanitishga klaster yondashuvi individual sub'ektlar va klaster ishtirokchilarining o'ziga xos afzalliklarini kuchaytiradi gan ijtimoiy hankorlik asosida amalga oshirishga asoslanganligini ko'rsatadi [210]. Ta'lim klasterlari modelning yagona tipologik xususiyatlari M.Yu.Barishnikov, I.I.Hinnova, A.V.Simonovlar tomonidan taklif qilingan [105]. Tadqiqotchi G.E.Zaxidov tomonidan ham klasterni shakllantirish usullari normativ-huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy-kommunikativ sohalar bo'yicha tahlii qilingan [90].

L.V.Ovsienko, I.V.Zimin, N.N.Klintsova, F.Mueller kabi olimlarning tadqiqotida ta'lim klasterlari ijtimoiy sherkilik doirasida universitetlar, umumta'lim maktablari, korxonalarining tarmoq aloqalari o'tasidagi faoliyati degan ta'rifi keltirishadi [149]. Aynan shu mazmun tadqiqot doirasida taqdum qilinadigan ta'lim klasteri tuzilmasida o'z akssini topadi.

Ta'lim sohasidagi klasterli yondashuv borasidagi tadqiqotlarini o'rganish, bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlash va tahlil qilish jarayonida ilmiy tadqiqotlarda klaster yondashuvining bir nechta kontseptual ta'riflarini uchratdir. Masalan, U.Xodjamqulov «alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakkarni kuchaytirish mexanizmi» [200]; I.Gulboy «zamonaviylig va mutnazam yondashuvdan kelib chiqqan holda bir tashkilotning tuzilishiga birlashtirilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan turli soha xo'jalik sub'ektlarining majmui» [65]; L.Bespalova «ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqi bo'ifikasiidan iborat bo'lgan tuzilma» [39]; L.Osechkina «ishlab chiqarish va ta'lim

dasturlarining ehtiyojlarini birlash-tirish» [150]; A.Sidorin «taskiloting kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovation samarali usuli» [177]; S.Danilov «chiqarish tizimida innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi chiqarish tizimida innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi» [74]; Ye.Sembykina «chiqarish tizimida innovatsiyalarini qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi (bolalar bog'chasi-maktab-kollej-OTM) integratsiyalashuvi natijasida ta'lim tizimini izchillik tamoyili asosida qayta tashkil etish» [175], deya ta'riflashgan.

Bizingcha, ta'limga nisbatan tabbiq qilinayotgan klaster yondashuviga mualliflik asosidagi ilmny farazlarni ham taqdim etish maqsadga muvofiq: klaster yondashuvi bu ta'lim sohasida uning rivojlanish nazariyasi va texnologiyasini tartibga solish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat turларни йориъетиш, узвиълих, узлуксизлик ва изчиллик асосида та'lim sohasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tuzilma tuzish;

ta'lim turlarining innovation-integration hankorlik tamoyillari asosidagi hamda maqsad umumiyligi va manfaat xususiyligidan kelib chiqqan holda belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashga qaratilgan pedagogik-texnologik faoliyat tuyg'unligini ta'minlash. Yuqoridaqgi ta'rifdan kelib chiqsak, ta'limga nisbatan tabbiq qilinayotgan klaster yondashuvi bu alohida bir sohada samarali hankorlikka yo'naltirilgan tuzilma tuzish, uning rivojlanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat bo'lib, undagi uzviylik, uzlucksizlik va izchillik soha faoliyati samaradorligini intensiv oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim sohasidagi klaster yondashuvi belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minashning qulay tuzilmasini tizimga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Tadqiqot doirasida «ta'lim klasteriga quyidagicha ta'rif berish mungkin: «Ta'lim klasteri ta'lim oluvchilarining kompleks rivojlanishi ko'zda tutuvchi o'zaro manfaatdor hankorlikka asoslangan o'quv-tarbiyaviy, rivojlaniruvchi muxit».

Ta'lim klasterini tadqiq qilish jarayonida ta'lim klasterining samarali rivojanishi masalasiga alohida to'xtalish lozim. Olimlar ta'lim klasterining samarali rivojlanishi, uning muvaffaqiyatini

quyidagi ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoit va omillarga bog'liq, deb hisoblaydi:

talabga javob beradigan texnologik va ilmiy infrastrukturuning

mavjudligi [192];

qatnashchilarining o'zaro hamkorlikka ruhiy jihatdan tayyorligi [201];

klaster sub'ektlari o'rtaida axborot almashishni ta'minlovchi kuchli axborot texnologiyalari [72].

Ta'lum klasterining samarali rivojlantirishning turli darajalardagi mustahkam strategiyasining mavjud bo'lishi;

tajribadan o'tkazishga yo'naltirilgan dastur va loyihalarni boshqarish hamda amalga oshirishning samarali mexanizmlarini qo'llash imkoniyati;

ta'lumi klasterlashtirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatlama oshirish;

samaradorlikka erishish uchun mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashtirish;

ta'lum klasteri sub'ektlarida targ'ibot-tashviqot ishlarni amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovation jarayonni to'la anglab yetishlariga erishish, hamkorlik ko'p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish;

klasterni rivojlantirishning puxta o'ylangan strategiyasini, loyiha ni muvaffaqiyatlama boshqarishning usul va yo'llarini ishlab chiqish; qatnashchilar o'rtaida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish.

Demak, ta'lumi klasterlashtirish bilan bog'liq ilmiy-amaliy ishlarni muvaffaqiyatlama amalga oshirish, ularda samaradorlikka erishish uchun mavjud texnologik va ilmiy infrastrukturani jarayonga moslashti-rish, sub'ektlarda targ'ibot-tashviqot ishlarni amalga oshirish vositasida ularning mazkur innovation jarayonni to'la anglab yetishlariga erishish, hamkorlik ko'p tomonlama manfaat keltirishini anglashlariga imkon yaratish, klasterni rivojlantirishning puxta o'ylangan strategiyasi-ni, loyihami muvaffaqiyatlama boshqarish-

ning usul va yo'llarini ishlab chiqish, qatnashchilar o'rtaida tezkor axborot almashish imkoniyatini yaratish klasterning muvaffaqiyat garovini yaratadi.

Ta'lumi klasterlashtirish juda keng ko'landagi taskilloyi jarayon bo'lib, ko'p vaqt va aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ta'lumi klasterlashtirish bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlar N.N.Davidova [72], B.M.Igoshev [72], G.E.Zaxidov [90] larning ta'kidlasichcha, klasterni rivojlantirishning aniq samaralari 5-7 yilda ko'zga tashlana boshlaydi.

Respublikamizning dunyo hamjamatiyatiga integratsiyalashuvi maktabgacha ta'lum tizimini jaxon standartlari asosida rivojlantirish kabi muhim vazifalarni belgiladi. Xususan, Maktabgacha ta'lum kontseptsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lum tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyas» hamda mamlakatimizda amalga oshirilayog'an yoshtaga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari va asosiy printsiplari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi murakkab global-lashuv sharoitida maktabgacha ta'lum muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq dolzarb vazifalar hamda ularni hal etishning usul va yo'llarini ilmiy nuqtai nazaridan tadqiq etish, sohaga innovation texnologiyalarni jalb qilish va ta'lum turlari o'rta-sidagi munosabatlarni pedagogik ta'lum klaster metodi asosida rivojlantirish maqsadlarini ko'zlaydi.

Kontseptsiya maktabgacha ta'lum muassasalarida yoshlarni jismonan va ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash, sohaga pedagogikaning zamonaliv yutuqlarini jaib qilish, maktabgacha ta'lumning rivojlantirish tendentsiyalarini belgilash, maktabgacha ta'lum muassasalari faoliyatiga taalluqli innovation ilmiy loyihalarni tajriba-sinovdan o'tkazish, yosh avlod ta'lum-tarbiyasiga yaxlit tizim sifatida qarash, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakattlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg'or tajribalar, bugungi O'zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Kontseptsiya maktabgacha ta'lum yo'nalishlarni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi hamda me-

tokognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta'ilimiga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks-chora tadbiarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Ushbu yo'nalishda Maktabgacha ta'ilimi boshqarishning axborot tizimini (EMIS), shuningdek, bolalarni davlat maktabgacha ta'ilin tashkilotlariga Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portalni orqali qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish tizimlarini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalg'a oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'ilim vazirligi tomonidan ta'ilim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ilg'or o'qitish shakkilari ni, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonloma rivojlanishi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta'ilming hoziri holati telekomunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantrishni, maktabgacha ta'ilim tashkilotlarining keng polosali Internet tarmog'iga ulanishini ta'minlashni, ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakkilarni va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'ilim sohasida innovation jarayonlarni joriy etish va rivojlantrish maqsadida quyidagi tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoxda:

- 1) maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantrish sohasida ilg'or xalqaro tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy etish maqsadida xorijiy mamlakatlarga o'quv safarlarini tashkil qilish;
- 2) maktabgacha ta'ilim sohasida dasturly vositalar, axborot ma'lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta'ilim tashkilotlari faoliyatida qo'llash;
- 3) axborot xavfsizligining munosib darajasini ta'minlash, yagona axborot maydonini yaratish;
- 4) Maktabgacha ta'ilimi boshqarishning axborot tizimini (EMIS) yanada takomillashtirish va rivojlantrish, ma'lumotlarni kiritish va tezkor almashtish uchun mobil ilovalarni yaratish;
- 5) o'quv va o'quv-metodik adapbiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va nashr etishni tashkil qilish, raqamli ta'ilim resurslari, uydan turib masofali ta'ilim berish va ota-onalar bilimini oshirish texnologiyalarini joriy etish;

6) maktabgacha yoshdagibolalarni ertarivojlantrish sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or ilmiy ishlammalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'ilim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish;

7) innovatsiya loyihalarni amalg'a oshirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektilar, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, molivavyi institutlar va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni kengayrirish uchun zaur tashkiliy-tehnik va molivavyi-iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish;

8) maktabgacha ta'ilim tizimi xodimlarining innovation axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalarini sohasidagi bilimlari va malakasini oshirish, innovation ta'ilim muhitini tashkil qilish;

9) birinchi bosqichda har bir tuman tavanch maktabgacha ta'ilim tashkilotini, keyinchalik esa respublikaning har bir maktabgacha ta'ilim tashkilotini Internet tarmog'iga chiqadigan personal kompyuterlar bilan ta'minlash [8].

Respublika maktabgacha ta'ilim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv-metodik markazi negizida Maktabgacha ta'ilim tashkilotlari rahbarlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi va unga maktabgacha ta'ilim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirish vazifasi yuklatildi [8]. Bu tizim ham klaster muhitida alohida o'rnga hamda ta'sir kuchiga egadir. Shu bilan birga, maktabgacha ta'ilim sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning amaldagi tizimini tahvil qilish quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi:

- 1) xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko'p darajali uzluksiz ta'ilim tizimini yaratish;
- 2) ta'ilim va amaliyotni integratsiyalashtirigan holda xalqaro ta'ilim standartlari, o'quv-metodik reja va dasturlar, interaktiv va muammo-li-vaziyatli o'qitish usullari va trennglari, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- 3) maktabgacha ta'ilim tizimi xodimlariga qo'yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash;
- 4) ta'ilim jarayoniga xorijiy mutaxassislarini jaib qilish yo'li bilan

maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida kadrlar mifikasini oshirish tizimini tashkil qilish uchun, shu jumladan mamlakat hududlarida, ta'lim muassasalari sonini oshirish;

5) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining xorijidagi yetakchi universitetlarda, ilmiy markazlarda va boshqa ta'lim tashkilotlarda stajirovka o'tashini tashkil qilish;

6) maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tashkil qilish, ularni malakali professor-pedagoglar tarkibi bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

7) xorijiy mamlakatlarning yetakchi olyi ta'lim muassasalari bilan uzqoq muddati munosabatlarni yanada rivojlantrish, maktabgacha ta'lim sohasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasida ularning filiallarini ochish;

8) tajriba almashish, ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bo'yicha sa'y-y-harakatlarni birlashtirish maqsadida pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ul-lanuvchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning muassasalari bilan samarali idoralararo hamkorlikni chuqurlashtirish;

9) o'zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy biimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitimi ta'minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish;

10) maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini moddiy rag'battantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish;

11) maktabgacha ta'lim taskiklari rahbarlariga zaruriy kasbiy kompetentsiyalar ro'yxatimi o'z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish;

12) strategik boshqaru, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruva kardlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-sonli «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantrish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining ijrosi-

ini ta'minlash asosida to'plangan tajribani tahsil etish va umumlashtirish, mamlakkati ijtimoiy-iqtisadiy rivojlantrish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantrish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanmoqda, o'quv-tarbiya jarayoni yangi o'quv-uslubiy majmular, ilg'or pedagogik tenologiyalar bilan to'liq ta'minlanmoqlari qaror topmoqda va ularni rivojlantrish amalga oshirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirishda, ta'lim jarayonini to'liq axborotlashtirish ko'zda tutilmoxda.

Shunday qilib, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lim komil inson shaxsini yetuklikka yo'naltiradi.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarda olib borilayotgan istohotlar ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishta burdi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos hol-da mazmunning ham, pedagogik jarayon ham yangilandi. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sifatiga quyidagicha yondashilmoqda:

- 1) sifatl o'quv jarayonini tashkil qilishda pedagog kompetentsiyasini rivojlantrish;
- 2) ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarning asosiy negizi - turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda pedagogning layoqatini oshirish;
- 3) ta'lim-tarbiya sifatining mahsulasi – natijani qo'lg'a kiritish va boshqalar.
- 4) MTTlarda pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanganligi bois uning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liq holda qaratishi lozim. Shu sababli har bir MTT pedagogi faoliyatida shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'shi zarus.
- 5) Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy o'zviyligini (ketma-ketligini) ta'minlashi, bir avlod tajribasini ikkinchi avlodga o'tkazishga

qaratilishi, bolalarni maktab ta'ilimiga tayyorlashi lozim.

Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida keltirilgan bosh g'oya, ya'ni: «... faqat ilm va bilimlar jamiyatni rivojiantiishi, davlatni taraqqiy ettira olishi mumkinligi», to'g'risidagi g'oyasiga monand ravishda sifatlari ta'ilim boshqaruvini amalda joriy etish talab etiladi [22]. Demak, bugungi kunda jahon andozalariga tenglashtirilgan ta'ilim sifat tizimi asosida mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning «Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'iishi kerak» kitobida: «Mustaqil fikrlaydigan, zamonaiviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan, o'z yurti, o'z xalqiga fidoyi, biz bosqlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo'lgan, har tomonlana yetuk rahbar oldida dolzarb vazifalar – kelgusi avlodni komil inson qilib tarbiyalash vazifasi turibdi»-degan fikmi e'tirof etadilar [11]. Darhaqiqat, so'negi yillarda inson omiliiga e'tiborning orrib borishi munosabati bilan maktabgacha ta'ilim tashkilotlarida metakognitiv metodlarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1.2-§. Maktabgacha ta'ilim yoshidagi bolalarda kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Ilmiy bilishning asosiy belgilari, avvalambor, uning ob'ektiv bilimga ongli ravishda intilishi bilan belgilanib, yangilikka ongli ravishda intilish bevosita ilmiy bilimga xos xususiyatdir. M. Weber ta'rifcha, «fan olamida ilmiy asoslangan g'oyani amalga oshirish o'rganilayotgan voqeaga nisbatan yangi savollarning tug'ilishini anglatadi va bu kelajakda mukammal darajadagi ilmlarni egallashunga asos bo'ladи» [49]. Ilmiy bilim o'zinинг ratsionalligi bilan ajralib turadi hamda u dalil, isbot va tizimlilikni talab etadi [228].

Fan nuqtai nazaridan yondashilganda bolaning dunyonи anglashi masalasiga faylasuf, pedagog hamda psixolog olmlar bir qancha izoh va ta'riflar berishgan. Jumladan, F.Aries [33], L.Demoz [77], Yu.Bronfenbrenner [44], I.S.Kon [107], G.Krayg [112], V.T.Kudryavtsev [115], M.Mid [132] va boshqalar tomonidan olib

borilgan ilmiy izlanishlarda bolaning dunyonи ongli ravishda in'ikos etishiga oid qarashlar va omillar keltirilgan. Faylasuf N.E.Sokolova «Dunyoni anglash – bu ob'ektiv dunyoga, kishilarning o'zini o'rabi turgan voqelikka va o'z-o'zida bo'lgan qarashlar tizimi bo'lib, bu qarashlarda asoslangan odamlarning hayot tarzları, e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat printsiplarini anglatadi va slaxsning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, ilmiy-nazariy bilimlari yo'naliishini belgilaydi» deya ta'rif beradi [72: B.12].

Bola tarbiyasida pedagogik uslublarni qo'llash Ye. Belova [38], M.A. Vasileva [47], T.N. Doronov [81], N. Dudina [82], O.M. Dyachenko [83], G.B. Korabileva [110], L.N. Litvin [125], N.Mixaylenko [134], L.A. Paramonov [152], A. Plexanova [159], V.D. Semenova [174], R.Sterkina [186] va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik va ma'naviy rivojalishi, ularning faoliyatli yondashuvlar asosida tarbiyalanishi masalalari L.A. Venger [50], L.S. Vygotskiy [55], P.S. Galperin [59], V.V. Davydov [70], A.V. Zaporozets [88], E.V. Ilenkov [97], M.S. Kagan [100], V.T. Kudryavtsev [114], A.A. Leontev [122], A.N. Leontev [123], B.C. Muxina [143], B.S. Nikitin [144], J. Piage [156], N.N.Podd'yakov [160], S.L. Rubinshteyn [170], 3.Freyd [197], G.P.Shedrovitskiy [214], D.B. Elkonin [216] va boshqalar ilmiy izlanishlarda yoritib berilgan.

Maktabgacha ta'ilim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish muammolari I.V.Bestuyev-Lada [40], N.P.Grishaeva [63], T.Danilina [75], G.E. Zborovskiy [91], Ye.Yu.Ivanov [95], N.Mixaylenko [134], N.Korokov [135], L.Migeeva [131] va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarda tahlil qilinigan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlari maktabgacha ta'ilim yoshidagi bolalar rivojanishiga muayyan darajada xizmat qiladi. Tadqiqotlarni o'rganish mobaynida, bugungi kunda maktabgacha ta'ilim pedagogikasida metakognitiv metodlarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlash, didaktik jarayonlarni takomillashtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanish metodikasini rivojantirishga bo'lgan to'liq nazariy-metodologik, ijtimoiy-empirik ishlannamalarni yaratishga ehtiyoj sezilayotganligi aniqlandi.

Adabiyotlar va ilmiy ishlamnalar tahillaridan ma'lum bo'lishicha, so'nggi yillarda MDH mamlakatlari va respublikamizda olib borilgan tadqiqotlarning tayaygina qisini maktabgacha ta'ilim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning kompetentiligini oshirishga yo'naltirilgan. Bunga misol tariqasida quyidagiarni keltirish mungkin:

E.V. Zateyevaning «Podgotovka pedagogov doshkohnogo obrazovaniya k problematizatsii obrazovatel'nogo protsesssa» mavzusida gi nomzodlik monografiyasida maktabgacha ta'ilim tizimini rivojantirish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini samarali joriy etish orqali ta'ilim sifatini ta'minlash, didaktik tizimni yanada takomillashtirish, moddiy-tehnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'ilim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'ilim dasturlari va texnologiyalarini tabbiq etish, bolalarni har tomonlana intellektual, axloqiy, estetik va jismonyy rivojlanish uchun shart-sharoitlar yaratish masalalari yoritilgan [89: 200 b].

D.T. Pashkevichning «Izmeneenie professionalnoy pozitsii vospitatelya doshkohnogo obrazovatel'nogo uchrejdeniya v usloviyakh povysheniya kvalifikatsii» mavzusidagi nomzodlik monografiyasida maktabgacha ta'ilim tashkiloti pedagoglarining malaka oshirish ja-rayonida ta'ilim mazmunining muassasa ehtiyojaridan kelib chiqqan holda amaliyotga yo'naltirilgan, shuningdek, ba'zi bir tashkiliy quayliklarning (kurslardagi tayyorgarlikka qaraganda kamxarjligi va o'qish bilan ishni birgalikda olib borilishi) mayjudligi haqida fikr yuritilgan va shu yo'nalishda tadqiqot ishi olib borilganligi bayon qilingan [153: 193 b].

E.V. Morozovaming «Uchhyot osobennostey pedagogicheskogo myshleniya pri povyshenii professionalnoy kompetentnosti vospitatelyy doshkohnix obrazovatel'nix uchrejdeniy; V usloviyax IPK» mavzusidagi nomzodlik monografiyasida bozor iqtisodiyoti sharoitida ham shaxsiy tashabbuskorligini, ham kasbiy rivojlanishi haqini o'zi to'lashga tayyorligini namoyish etish orqali pedagog o'zining kasbiy saviyasiga bo'igan mas'uliyatni oshirishning xozirgi kundagi muhim alomati qayd etilgan [137: 217].

L.K. Kliminaning «Regionalnaya sistema povysheniya kvalifikatsii pedagogov doshkohnogo obrazovaniya» mavzusidagi mono-

grafiyasida pedagoglarni kasbiy rivojlanishida maktabgacha ta'ilim mazmuni va o'qitish metodlari xususida fikr yuritilgan. Olma malaka oshirishning mazmuni joylarda ta limning ehtyojini o'zida aks ettirishini e'tirof etib, davlat tomonidan asosiy e'tibor ta'ilim sohasidagi alohida milliy muammolar yechimiga qaratilishiga urg'u beradi [102: 200 b].

L.V. Bexning «Proektmaya deyatelnost doshkohnix rabotnikov v protsesse povysheniya kvalifikatsii kak uslovie obespecheniya kachestva obrazovaniya» mavzusidagi nomzodlik monografiyasida pedagogik kadrlar malakasini oshirishning moslashtiruvchi, to'ldiruvchi hamda innovation funktsiyalari mayjudligi pedagogik tayyorgartikning ilmiy-texnikaviy rivojlanish natijalariga moslashtirish zaruriyatini aks ettirishi yoritilgan [41: 200 b].

Pedagog olma A.P.Samorodovaning «Razvitiye professionalnogo pedagogicheskoy kultury vospitateley doshkohnax obrazovatel'nykh uchrejdeniy v usloviyakh instituta povysheniya kvalifikatsii» mavzusidagi nomzodlik monografiyasida maktabgacha ta'ilim muassasalari pedagoglarining malaka oshirish tizimiga doir muammolar o'reganilgan va u quyidagicha turkumlangan: pedagoglarning metodlari kasbiy salohiyati yoki shu yo'nalishdagji boshqa mutaxassis-larga bog'iqligi; pedagoglarning malaka oshirishga bo'igan ongli munosabati va qiziqishlari; uzlusiz ta'ilming tabaqalanishi darajasing pastligi; malaka oshirish dasturlaridan barcha pedagoglarning foydalanish imkoniyalaridagi tengsizlik va hokazo [173: 186 b].

Psiolog olma T.E. Chernokovaning «Formirovanie metakognitivnykh strategiy u detey doshkohnogo vozrasta» mavzusidagi nomzodlik monografiyası maktabgacha ta'ilim yoshidagi bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlanish muammolari yechimini topishga qaratilgan [206: 234 b].

Yu.V. Skvortsovanning «Metakognitivnye komponenty pedagogicheskogo myshleniya prepodavatelya yasshey shkolsy» mavzusidagi nomzodlik monografiyasida malaka oshirish ta'ilimda yangi pedagogik texnologiyalar va innovation usullarni aniqlash va amaliyotga joriy etish; pedagoglarni malaka oshirish institutlariga masofadan bog'lash orqali ta'ilim mazmunini takomillashtirish, fanlardagi va o'qitishning yangi metodlari bo'yicha yangiliklar berib borish;

kursdan kurgachcha davrda tuman (shahar) metodika kabinetlari tomonidan pedagoglarning uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish; malaka oshirish institutlari kafedra va bo'lim professor-pedagoglari hamda taklif etilayotgan ma'ruzachilar o'quv dasurlari, ma'ruzalarning mazmuni, ilmiy-metodik yo'naltirilganligini tubdan qayta ko'rib chiqish va ularni AKT vositalari yordamida iza-tish imkoniyatini tashkil etish kabi masalalar o'reganilgan [179: 198 b.]. Shuningdek, malaka oshirish jarayonlari nafaqat pedagoglarni kasbiy bilim va ko'nikmalarini o'zhashtirgan mutaxassis sifatida tayyorlashga, balki katta yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishi uchun zarush shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, -deya e'tirof etilgan.

N.N.Abasminnuning «Pädagogicheskaya podderjka razvitiya kommunikativnoy kultury detey starshego doshkolnogo vozrasta v kuu turno-igrovom prostranstve doshkolnogo uchrejeniya» mavzusidida gi monografiyasida «metabilish» tushunchasiga kenga ta'rif beririgan. Muallif fikricha, «metabilish»-mактабгача та'lim yoshidagi bolalarda olam va tevarak-atrof to'g'risida shakllangan tushunchalarini tahlii qilishga qo'yilgan ilk qadamdir [21: 166 b.].

Yuqorida tahlii qilingan monografiyalardan ko'rinish turibdik mактабгача та'lim tashkilotaridagi pedagogik jarayon – ma'lum bir maqsadga yo'nalturilgan, pedagogik faoliyat ta'sirida tashkiliq shakllantrilgan va mazmunan boyitilgan tizimdir Bu tizimi boshhhish arishtda va uning sifatini yuqori pog'onaga yuksaltirishda yangyo'llarni topish, ta'lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar bilan jahozlash, uni ma'naviy jihaddan yangilash, tarkibiy jihaddan texniyalasbas etadi.

har tomoniama yetuk, komil insomni shak||antirish masalasining ko'p qirrali va murakkabligi hoziri zamон maktabgacha ta'lim pedagogikasi va amaliyoti uchun muhimligini ko'rsatib beradi. Chunki bu vazifani pedagog kadrlar mahorati, ularning yetukligi, chuqur kasbiy bilimi, ko'nigma va malakasi, maxsus bilimliz amaliga oshirib bo'lmaydi. Bu borada maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish dolzarblik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan isloxtolar ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishdek muhim vazifani qo'ydi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: «taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni quadratl, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Shuning uchun ham, maktabgacha ta'lim, maktab va oly ta'lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda» [17]. Bu esa hozirgi vaqida maktabgacha ta'lim tizimida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarini nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holada tayyorlash, ularning maktabgacha oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga maktabgacha ta'limi isloh qiliishing asosiy shartlaridan biri - buyuk ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mo'jassamlashtiregan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davning bu talabi - matabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma'nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifasini bajarishini talab etadi. Matabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari va pedagog kadrleri oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakkantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o'z xaq-huquqlarini taniydig'an, o'z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo'layotgan voqeя va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatları bilan uyg'un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas'uliyatni - talab qiladi. Ustozlik mahorati va pedagoglik san'atining taylor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san'atni egallash uchun insondon katta kuch, ijodkorik va ko'p yillik tajriba talab etiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni maktabga taylorlashda didaktik jarayonga metakognitiv metodlarni qo'llash va pedagogik tizimni oqilona tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

metodlarni talab etadi. Aynan shu sababli, olimlar tadqiqotlarda «Metabilish» tushunchasi turlicha, bir-biriga o'xshamagan holda talqin etilganligini ko'rishimiz mumkin.

«Metabilish» tushunchasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushu tushuncha fanga ilk bor Djon Fleyvell tomonidan 1976 yilda kiritilgan. Uning fikricha, insonning bilish jarayontari haqidagi umumiy bilimlar majmuasini nazorat qilishga undaydigan bilimlar sohasiga metabolish sohasi deyiladi [235]. Dj.Fleyvell metabolishning to'rt komponentini ajratib ko'rsatadi: metakognitiv bilimlar, metakognitiv tajriba, metakognitiv maqsad, metakognitiv strategiya.

Ingлиз олими A.Braun ta'kidlashicha, metabolish – bu inson tomonidan o'zlashtirilgan o'zining bilimlari to'g'risidagi bilindir. Olima metabolishini ikki kategoriya asosida o'rganishni tavsya etadi: 1.Bilish to'g'risidagi bilim – faoliyat majmui bo'lib, ongi ravishdagi kognitiv xatti-harakat va qobiliyatlarni boshqaruuchi refleksiv jarayondir;

2. Bilish reguliyatsiyasi – didaktik jarayonlarda bilishga intillish hissini muvofiqlashtiruvchi xatti-harakatlar va faoliyat majmuasi [226].

A.Braun metabolish jarayonlari ta'llim berish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni nazorat qilishga xizmat qilishi va bir necha tizimdan iborat bo'lgan faoliyatni:

Faoliyatni rejalashtirish jarayoni (rejani shakllantirish, natijani ko'ra bilish, quyilgan kamchiliklarni tahlil qilish);

Faoliyatni nazorat qilish jarayoni;

Bilish faoliyatning natijaviyligini nazorat qilishni taskil etishini keltiradi [226].

Ingлиз олими R.Klyuve xam metabolish jarayonlarida kognitiv faoliyatni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi ikkita tizimini:

Nazorat jarayoni - quyilgan topshiriqni identifikasiyalashga undovchi, o'z faoliyatiga baho berish va kelgusi faoliyatni rejalashtirishga hamda natijaviyligini ta'minlovchi yo'naltiruvchi jarayon;

Boshqaruv (regulyatsiya) jarayoni - quyilgan topshiriqni bajarish uchun resurslar taqsimotiga ko'maklashuvchi, topshiriq bajarilishining algoritmini belgilovchi jarayonni ajratib ko'rsatadi [230].

Xorij olimlari Z.Freyd, K.Yung, K.Xorni, CH.Spielperger tadqiqotida shaxsning ijtimoiy qadriyatlarni diagnostika qilish, gu-

ruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish asosida inson tafakkuri taraqqiyotining bosqichlarini chuqr tablib qilishgan. Ularning ilmiy izlanishlarida insonning taraqqiy etishida ma'rifatparvarlik, uning xususiyatlari, tafakkur faoliyatidagi o'mni tadqiq qilingan [236; 220; 203; 233].

Skott Plaus, Karl Popper, M.Lipman, D. Kluster, R.Paul tadqiqotlarida inson tafakkurining ma'rifatparvarlikka intillish xususiyatlariga oid jihatlari tadqiq etilgan [180; 163; 227; 104; 231].

D.Rigli, P.Shettis, R.Giants va S.Vaynshteyn tadqiqotlarida metabolishni o'zbilimlarini ongli ravishda o'rganishga mo'ljallangan refleksiyani qo'llash jarayoni va o'z tafakkur faoliyaning strategiyasini belgilashga mo'ljallangan xatti-harakatlar majmuasi sifatida e'tirof etishadi. Olimalarning fikricha, rejalashtirish, xatti-harakatni belgilash strategiyasi, bilish jarayonlari monitoringi insonning ongli ravishda o'quv-biluv faoliyatida muhim o'rinn egallaydi [232].

S.Tobias va X.Eversonlar metabolishning ietarxik modelini taklif etishib, unda bilimni baholash, o'qitish sifatini baholash, kelgusi o'quv faoliyatni rejalashtirish va o'quv strategiyasini belgilash muhim ahamiyat kasb etishi tavsiflangan [234]. Bilimlar monitoringi metakognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim qadam bo'lib, insonning nimaniy yaxshi bilishiyu yana nimalarini o'rganishi lozimligi huqida o'ylab ko'rishga xizmat qilishini belgilaydi.

Rus olimasi M.Xolodnaya, boshqa mualliflar singari, metabolish jarayonlari bilimlarni ongli nazorati bilangina aniqlash mumkinligi to'g'risidagi fikrlar bilan cheklanmasligini uqtiradi. Muallif maktabgacha tayyorlov yoshidagi bolalarning intellektual sohasini tadqiq qilgan olma mental qobiliyatning shakllanishida uch bosqichni ajratib ko'rsatadi:

- Kognitiv bilim (tajriba) - mental tarkib, ya'ni qabul qilinayotgan axborotlarni tizimlashtiruvchi, ularni interpretatsiyalovchi va idrok qiluvchi bosqich;

- Metakognitiv bilim - intellektual faoliyatni boshqarishda bevosita va bilvosita qabul qilingan axborotlarni qabul qilish, boshqarish (regulyatsiya qilish). Metakognitiv bilim bevosita qabul qilingan axborotlar ustidan intellektual nazorat olib borishni ta'minlaydi va u metakognitiv bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi;

- Intellektual bilim (tajriba) - intellektual moyiliylarni yo'nalti-

ruvchi mental tarkib [202].

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, maktabgacha ta'limga pedagogikasi maktabgacha ta'limga boshlang'ich ta'limga uzyviligini davom etiruvchi metakognitiv ta'limga zamonaviy maktabgacha ta'limga muassasalarida tashkil qilishi inobatga olishi zarur. Maktabgacha ta'limga variativlik asosida o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotning ijtimoiy-iqtisodiy sohalariiga ko'nikuvchanligini shakllantirish orqali fikr-mulohazali shaxslarni yetishtirish holatini vujudga keltiradi. Ikkinchchi tomonidan, maktabgacha ta'limga metakognitiv bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan moslashuvchani ta'limga berish bolaning kattalar bilan muloqoti davomida insonparvarlikka asoslangan sub'ektilik darajaming belgilanishi bilan o'ichanadi.

Mavzu doirasida bajarilgan ishlarda, mayjud bo'lgan yana bir muammo, maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalar tafakkuri masalasi hisoblanadi.

A.V. Petrovskiy, ta'kidlashicha, «tafakkur shuning uchun ham ziarurki, hayat va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlariiga duch keladi. Koinot cheksiz uni bilish jarayoni ham cheksizdir. Shunday ekan, maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalarda tafakkur hamisha hali bilib olimmagan, yangilikning ana shunday cheksiz chuqur jihatlariga qaratilgan bo'ladi. Har bir bola tafakkur qilar ekan, buning bilan shu paytgacha qandaydir yangilikni, nomalum narsani mustaqil ravishda kashf qiladi» [155: 102 b.].

Maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalarda tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va borliqni kognitiv anglash vositasida rivojlandi [115: 592 b.].

Respublikamiz pedagog olimlari U.I. Inoyatov va N.A. Muslimovlarning «Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob» nomli metodik qo'llanmasida tafakkur tushunchasiga quyidagicha izoh berishgan: «tafakkur – ijtimoiy voqeal-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir [98: 114 b.] Shunday ekan, tafakkur – yangilikni qidirish va ochishga sotsial jihatdan bog'i, atoqador psixik jarayondir, uning tahlii va sintezi jarayonida vogelikni bevosita va bilvosita umumlashtirib aks etirish jarayonidir. Demak, bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha

ta'limga tashkilotlariidagi didaktik jarayon tarbiyalanuvchining sezgi, idrok va tasavvurlarining rivojlanishi orqali boshqariladi.

E.Z. Usmonova o'zining «Bolalarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin» nomli o'quv qo'llanmasida «tafakkur – ijtimoiy hayat sharoitiда shakllanadigan jarayon bo'lib, dastavval keng premetti (amaliy) faoliyat tarzida namoyon bo'ladi, keyinchalik u «aqqliy» xatti-harakat xarakterini oluvchi shaklga aylanadi»-deb ta'rif keltirgan [195: 78 b.].

J.Xasanboev, X.To'raqulovlar tomonidan nashr etilgan «Pedagogika fanidan izohli lug'atda tafakkurga berilgan ta'rifa ko'ra: «Tafakkur – falsafiy tafakkur rivoji insoniyat taraqqiyoti bilan uzyv bog'i, qarayondir. Ma'lumki, hayotdagi voqe-a-hodisalarning bar-chasi ijtimoiy ongda aks etadi. Tafakkur – insoniyatning necha ming holda hosil qilinib borilgan va erishilgan olyi va aqliy ne'matdir [198: 155 b]. Demak, olimlarning e'tiroficha, tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo'ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi [155: 102 b.].

J.J. Pajajening «Bolaning rivojlanishiha muhitning o'rni» [156: 408 b.], D.B. Elkominning «Shaxs rivojlanishiha o'yinming ahamiyati», «Pedagogik psixologiya» [216: B.36-45], V.V. Davidovning «Rivojlaniruvchi ta'limga nazariyasida shaxs tavsifi, uning rivojlanish bosqichlariga psixik jarayonlarning ta'siri, faoliyatni boshqarishda tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlar bildirligani [70].

P.I. Ivanov fikricha, «tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatindirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumiylashtirib aks etirishga (bilishga), insonning tag'in xam oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi» [95: 183 b.]. Olimning fikriga qo'shilgan holda shuni ta'kidlash joizki, tafakkur atrof-muhitdagji voqelikni nutq yordami bilan umumlashtigan holda aks etirishga psixik jarayondir. Bu to'g'risida rus olimi A.V. Petrovskiy «tafakkurga ijtimoiy sabablar asosida vujudga kelgan, yangilik qidirishdan iborat psixik jarayon, boshqacha qilib oyganda, tafakkur volkelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks etirish protsessidir», -degan fikri ilgari surʼdi [155: 102 b.]. Binobarin, tafakkur – inson psixik faoliyatining yuksak formasi bo'lib, inson tajribasida, sevgi, idrok va tasavvur

asosida vujudga kelgan va taraqqiy qilib boradi.

Bolaning shaxs sifatida kamol topishida ijtimoiy, biologik, ruhiy omillar muhimligi va bunda kognitiv jarayonlar, uning xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda *ijtimoiy munit* – bola shaxsni shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi.

Shunday qilib, falsafa, psixologiya va pedagogikaga oid ilmiy adabiyotlar tahlillaridan ma'lum bo'ldiki, «metakognitiv tafakkur» mazkur sohalarda qizig'ish uyg'otadigan kategoriya sifatida baho lanadi. Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda tafakkurning ikkita turi ajratib ko'rsatildi: ratsional va irratsional. Mazkur tafakkur turlaridan ikkinchisini M.Tojiev va B.Ziyomuhammadovlar muroqaba (ichki tuyg'ular) yordamida fikr yuritish deb ataydi. Ularning fikricha, birinchisi ob'ektiv borliqning xususiy tomonini aks ettirsa, ikkinchisi to'iqin jabhasi bilan bog'ilq [92: B.27]. Intellect insomning bilish qobiliyati, fikrlash, anglash, tafakkur qilish sa lohiyatini belgilaydi. U ma'naviyatga va fikrlashga yaqin bo'lib, insomning ruxiy-xissiy tuyg'usi, bilish qobiliyati va aql-zakkovati, aqliy yetukligi ijobjy fikrlashi va yuksaklikka intilishi bilan uyg'unlashadi [208: B.12]. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, ularni maktabga tayyorlashdagi asosiy kafolat beruvchi jarayon hisoblanadi. A.Venger, N.N. Poddyyakov, N.G. Salmin va boshqalar tadqiqotlarida ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda metakognitiv strategiyalardan foydalangan holda ularning intellektual jihatdan shakllantirish muhimligi uqtiriladi [50; 160; 172].

K. Tixomirov, Yu.K.Kulyutkin, I.I.Semenov va boshqalar maktabgacha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda refleksiya, uning ahamiyatini alohida tadqiqi qiliishi [191; 117; 174]. J.Piaje [156; 157], M.Donaldson [73], V.V. Davydov [71], A.Z.Zak [67], G.A.Tsukerman [204]lar ham bolalarda refleksiya jarayoni fikrlashning olyy pog'onasi sifatida namoyon bo'llishini o'z ishlarida quyd etib o'tishgan. Shu sababli, maktabgacha yoshidagi (6-7 yosh) bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda yuqoridaq nazariyalari, ilmiy qarashlar va kontseptsiyalarni inobatga olib, maxsus metodika yaratilish zarurligi mavjudligi, bu muammoga umallyy tavsiyadagi masala sifatida qarashga undaydi.

J.Piaje, C.J.Rubinshteyn, Ya.A.Ponomarev va boshqalar fikricha, bilish jarayonlari mantiqiy tafakkur jarayonlari bilan uyg'unlikda kechadi [156; 157; 170; 162]

E.S.Ermakova, O.R.Galimov, I.B.Shiyan, N.N.Kondakova, R.R. Zinurova, A. Ye. Rezuanova va boshqalarning ishlarida dialektik tafakkur maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga xosligi o'z tasdig'i topadi. Olimlarning fikricha, 6-7 yoshli bolalarda ushu tafakkur turini rivojlantrish yo'llari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, psixolog olimlarning ko'rsatishlaricha, aynan dialektik tafakkur ularning kelgusidagi metakognitiv bilimlar ko'lamini kengaytirmishga xizmat qiladi [85; 57; 211; 162; 108; 93].

muhimligini ta'kidlash joiz.

Metabolishing muhim komponentlaridan biri –bu metakognitiv strategiyalardir. Dj. Fleylev' ta'biri, bu strategiyalar insomning bilim olish maqsadlarini o'zi tomonidan nazorat va monitoring qilishga xizmat qiladi [235]. V.A. Molyakolarning ilmiy qarashlarida insomning shaxsiy kognitiv strategiyalar tuzilmasi o'rganiladi [136]. Metakognitiv strategiyalar «kompleks strukturasi», «bilishni qaytdan idrok qilish»ga undaydi [45]. Bizning tadqiqotlarimizda, aynan, maktabgacha yoshidagi (6-7 yosh) bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, ularni maktabga tayyorlashdagi asosiy kafolat beruvchi jarayon hisoblanadi. A.Venger, N.N. Poddyyakov, N.G. Salmin va boshqalar tadqiqotlarida ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda metakognitiv strategiyalardan foydalangan holda ularning intellektual jihatdan shakllantirish muhimligi uqtiriladi [50; 160; 172].

Manbalar tahlili natijasida, biz metakognitiv strategiyasi tasniflarini takomillashtindik va o'zimizning ta'rifiy yondashuvni taklif etadik.

Metakognitiv strategiyalar – fikrash strategiyalarini yo'naltiruvchi, dialektik aqliy harakatlarni boshqaruvchi, muayyan tafakkur tuzilmasidir.

Metakognitiv strategiyalar bilish jarayonlarini muvofiqlashtirib, ularni quydagi aqliy xatti-harakatlarni bajarishga undaydi:

1) amaldagi aqliy strategiyaning asossiz ekanligini va uni yangicha tuzilmasini ishlab chiqish zaruratiga ehtiyoj mayjudligini anglash, alternativ, muqobil strategiya ishlab chiqish dialektikasi;

2)

amaldagi strategiyaning transformatsiyasi, ya'ni a) oldingi es-kirgan strategiyaning o'miga yangi mohiyatdagisini ishlab chiqish orqali; b) aqliy umumlashmalar orqali ikki va undan ortiq strategiyalarni jamlash va h.k.

«... inson tafakkuri ... tabiat, jamiyatning ob'ektiv qonunlarini bilish asosida narsa va hodisalar, voqealar rivojanish yo'nalishini oldindan ko'rishga, ularga amaliy ta'sir etish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi» [193: 320 b]. Binobarin, bolalarni maktabga tayyorlashda ularning nutq faoliyatini rivojantirish va shu asosda meta bilish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhammadrizo Ogahiy fikricha, til va fikrash insomni boshqa mavjudotlardan farq qilib turadigan asosiy belgidir, fikr va til «takallum» qilishga «fasohat va nafosatga», «ko'ngil mahzanidan javohir sochish» uchun berilgandir. Inson bilan tabiat o'tasidagi tuyg'unlik, tabiat go'zalligi inson tafakkuri, ma'naviy dunyosi rivojida g'oyat muhimdir [193: B.12]. Olim fikricha, tafakkurning rivojni narsa va hodisalarini chuqur va har tomonlama bilish imkonini beradi. Aqlli inson narsa va hodisalarning tub mohiyatiga yetadi, ularni to'g'ri baholab, aniq xulosa chiqara oladi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, dunyoda insondan ulug'roq kamolot yo'q, chunki unga «bebaho marvarid» - aql-zakovat kuchi hadya etilginki, unda «sir-asrorlarni va yuksak cho'qilarni bilish qobiliyati» bo'lib, uning ko'magida inson «kulug' zafarlarni bajo keltiradi. Alisher Navoiy inson o'zining tafakkur quvvati, dahosi, mehnati bilan tabiat va jamiyatni o'z ehtiyojlarini

yo'lida o'zgartiradi, - degan fikrni ifoda etadi [193: B.127].

Abu Rayhon Beruniy dunyoda insonning tutgan o'mi, istiqboli masalasiga katta e'tibor bilan qarab, ongi hayotiy faoliyat odamni huyvonnинг ongsiz xayotiy faoliyatidan farqlantiradigan muhim jihatlaridan biri ekanligi uqtiradi. Uning «Mineralogiyा» asarida: «odanda tafakkur qudratи bo'lmaganда edi, uning ahvoli hayvonlar holatidan ham tubanoq bo'lgan bo'lardi, chunki odam kuch jihatidan hayvonlardan zaif, kuchli tabiiy ximoya vositaridan mahrumdir» deb yozadi [193: B.214]. Beruniy ta'limotiga ko'ra, tabiatni bilish jarayoni sezgilaridan boshlanib, tafakkur darajasigacha ko'tariladi, ma'lum narsalardan noma'lum narsalarga va hodisalarini bilishga tomon rivojanib boradi. Bilish jarayonida hissiy bilish - sezgi, idrok, xotira kabilarga Beruniy katta e'tibor beradi va ularsiz tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi [193: B.215]. Binobarin, jamiyatning o'z-o'zini boshqarish darajasi kishilar ongning o'sishi, uning tafakkur madaniyati yetukligi bilan uzviy bog'liqidir. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda metakognitiv bilimlarning o'mi beqiyosdir.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson tafakkurining amaliy va hayotiy ahamiyatini bayon etib, shunday yozadi: «Im inson uchun g'oyat olyi va muqadas bir fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayirib berur. To'g'ri yo'iga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimiga sabbab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitidur» [23: B.15]. Pedagog olim o'z fikrini davom ettirib, inson tafakkuri masalalariga alohida to'xtalib o'tadi va: «fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonalardan beri taqdир qilinib kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonni sharofatlik g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muxtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqidur» [23: B.15]. Darhaqiqat, insoniyat taraqqiyoti, jamiyat rivoji uchun insonning tafakkuri amaliy bilimlardan kam bo'lmagan ahamiyatiga egadir.

Metabilish intellektual qobiliyatlarni rivojlanitish bilan chambargas bog'liq. Martsano o tadtqiqtolarida, metabolishga urg'u qiladigan murabbiylar samarali natijalarga erishganligini ta'kidlaydi, aynan tahsil oluvchi o'zining «bilishi to'g'risidagi bilishi» uni yana-da bilimi o'zlashtirishga undashini isbotlab berdi. Olimning fikriga ko'ra, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir. CHunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrflash va tasavvur etishgacha bo'lgan jayronlar o'sayotgan organizmning taraqqiy etishida ahamiyatlidir. Aqliy rivojlanish fikring kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiylashtirish qobiliyatida namoyon buladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojjanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, toy va plastilindan buyumlar yash, applikatsiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib berildi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qoniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak.

Maktabgacha ta'lim jarayonida bola buyumlar hamda hodisalar bilan tanishadi, nimanidir bilm ola, ushlab ko'radi, hidlaydi, torlib ko'rasi, nimagadir qulok soladi. Shu tarixa, uning dunyoqarashni shakllanadi. Tevarak- atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi or-ganlari-analizatorlariga ta'sir etadi va senzitiv sezgisi hosil bo'la-di. Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adirbudur, siliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k. ni bilim olishga yordam beradi. «Sezgi atrofdagi muhimmi bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va h.k. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi». Analizatorlar bir vaqting o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarni aniqroq hamda to'laroq

bilish imkonini beradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonida bolani aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlar ni ko'proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'dirish, bolaning sensor madaniyatiga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Bola 3 yoshga to'lganda uning so'z zaxirasini 1200-1500 taga yetadi. Bola katta yoshdagagi kishilar unga nima haqidagi gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katga yoshdagagi kishilar nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalananish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xayol muhim rol o'ynaydi.

«Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetti o'yinlar o'ynay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib bergenida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomattari paydo bo'ladi. Ammo boladagi xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinish qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.). 6-7 yoshli bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz beradi» [213: B.148]. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi.

Metakognitiv ko'nikmalar asosida bolalarni maktabga tayyorlashdagi asosiy vazifalar:

bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllanitish; aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qibiliyatlarini, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlanitish; mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish; aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanitish va boshqalar.

1.3-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda pedagogik ta'lim innovasion klasteri komponentlaridan foydalanish

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifati, uni baholash va o'quv mashg'ulotlarini tashkil qiliш bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalar olin-gan: maktabgacha tarbiya tashkilotlarida ta'limiy va tarbiyavy sifat nazoratining ichki baholash mexanizmlari ishlab chiqilgan (London universiteti qoshidagi «Layf Kouching», Ta'lim instituti (Buyuk Britaniya); ta'lim sifati menejmenti tizimini sertifikatlash va sifatni kafolatlash usullari tavsiflangan (Bavariya akkreditatsiyalash, sertifikatlash va sifatni kafolatlash instituti, Germaniya); ta'lim sifati nazoratining tashqi baholash mexanizmlari takomillashtirilgan (Nant, Fransiya); sifatning yalpi boshqaruvi kontseptsiyasini olyi ta'lim muassasalarida qo'llash xususiyatlari ochib berilgan (Kafiforniya va Ogaya universiteti, AQSh); ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari takomillashtirilgan (Vullongong universiteti, Avstraliya); sifat boshqaruvini takomillashtirib borish yo'nalishlari aniqlangan (Tokio pedagogika universiteti, Yaponiya); nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlarining mehnat samaradorligini oshirish (Seul Milliy universiteti), sifatni baholash va nazorat qilish usullari yaratilgan (Shanxay ta'limni baholash instituti, XXR); maktabgacha ta'lim taskilotlarida ta'lim sifatini baholash ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan (Puchon Milliy universiteti, Koreya Respublikasi); professor-pedagoglarning pedagogik mahoratini oshirish orqali sifatni ta'minlash mexanizmi yaratilgan (Bosh ilmiy-metodik markaz, O'zbekiston).

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifati, unibaholash, ilmiy-nazariv asoslash, kvalimetriyaga murojat etish, sifatning yalpi menejmentini qo'llash uzlucksiz ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim shartlaridan biridir.

Maktabgacha yoshidagi bola shaxsining rivojanishi malakali kadrlar taylorlash sohasidagi davlat siyosati doirasida shaxsmi intellektual va ma'naviy-axloxiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonloma rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishi naazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir

fugaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqini kafolatlaydi. Individuning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari, ta'lim va tarbiya kerak bo'ladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojanishi ular shaxsining fizioligik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Mohiyatan rivojanish oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi bilan belgilanadi. Demak, uning rivojanishida tabiat rivojanishining qonuniyatları ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida bahanlar ekan, uning rivojanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlari birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabattar tizimida uziga munosib o'rinn egalelaydi. CHunki rivojanish tarbiya ta'siri ostida boradi. Shaxsning fiziatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojanishining vazifasini to'g'ri xal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar, shaxs xususiyatlarini yaxshi bilih zarur. Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojanish qonuniyatlарini bilih hamda hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojanish va tarbiya o'rtaida ikki tomonlama aloqa mavjud.

Maktabgacha yoshidagi bola shaxsi rivojanishiga ta'sir etuvchi omillar, ya'n shaxs sifatida rivojanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtaida munosabatni belgilashga oid munozara yillar moboynida davom etib, unda quyidagi masalalar dolzablibagini yo'qotmaydi: insonning shaxs sifatida, rivojanishida ijtimoiy xodisalarming ta'siri kuchli bo'ladimi, yoki tabiiy omillar yetakchi o'r'in tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtaida o'zaro munosabat qanday? Fanda biologik yo'nalish deb nomlanigan nuqtai nazar yetakchi o'rinnlardan birini egallab, uning vakillari

Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimming hayotdagi o'rmini belgilab bergan, degan g'oyani itari suradi. XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyondalari esa shaxs rivojanishini dagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyanint rolini inkor etadi. Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim - bixevoirizm XX asr boschlariда yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyonda berilgan, deyiladi. Mazkur ta'lilot vakili amerikalik olim E.Torn-daykdir [189: B.832]. Pragmatizm oqimi va uning vakilari D.Duyi, A.Koxlerlar ham shaxs rivojanishini biologik nuqtai nazaridan asoslaydi [84: B.202]. Ular rivojanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydi. Nasining rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirdida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladi. Demak, bir guruh xorij olimlari rivojanishni biologik (nasliy) omiliga bog'laydi. Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojanishni ijtimoiy omil bilan belgilaydi. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojanishi u yashaydigan muhittga bog'liq, deb ko'rsatadi. Allaqaqchon, maktabgacha ta'lum pedagogikasida bola rivojanishida muhitning o'mni, bola ijtimoiyflashuvida uning ta'siri to'g'risidagi g'oyalar yetakchiilik qilmoqda (Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D. Ushinskiy, Abdulla Avloniy va boshqalar). Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasi (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limo-tiga suyaniladi.

Falsafada shaxsnı jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayot-dagi murakkab voqeqlik deb qaraladi. Ular individuning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydi. Demak, shaxs ma'lum ijtimoiy hayot maxsulidir. Shaxsning shakllanishiga ijtimoiy muhit ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitning shaxsning shakllanishiga ta'siri tarbiya asosida kechadi. Zero, birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'lik ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi. Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham bar-

taraf etilib, shaxs kamolga yetadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin. To'rinchidan, tarbiya kelajakkka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Demak, tarbiya bilan rivojanish bir-biriga ta'sir etadi, bunday tarbiya doimiy va uzlukszidir. Shunday qilib, bola shaxsining rivojanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhit, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

Maktabgacha ta'lum yoshidagi bolalarga ta'lum berish tizimi pedagogikada chek pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. Ya.A. Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lum va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. 19 bo'lindan iborat maktabgacha ta'lum dasturini tuzdi. Masalan, u tabiatslunoslik suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, o't, qum va boshqalar haqida bilim berish lozimligini, astronomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarda bolalarga elementar bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalarga beriladigan ta'lum ularning maktabda oladigan bilmlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U o'zining «Onalar maktabi» kitobida bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqdi. Shu bilan Ya.A. Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi [106: B.656].

Pedagog olim I.G.Pestalotsi (1746-1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha ta'lum yoshidagi bolalarning rivojanantirish masalasiga katta e'tibor berdi. G. Pestalotsi tomonidan ishlab chiqilgan ta'luming assosiy mazmuni maktabgacha ta'lum pedagogikasining rivojanishida va bolalarga keyinchalik makgabda sistemali ta'lum berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi [154: B.416].

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lum nazariyasini yaratishda MDH olmasi A.P.Usovning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950 yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lum-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o'tkazilgan ishlar ta'luming tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi [194: B.96].

Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir to'rt yondashuv qaror topgan: 1. Biologik yondashuv - inson tabiiy mavjudot

bo'lib, uning butun xatti-harakatlari tug'ma instinct va ehtiyojlar natijasidir. Inson jamiyat tabalariiga bo'yusunishga majbur, shu bilan birga tabiiy ehtiyojlarini ham namoyon qilib boradi. 2. Ijtimoiy faoliyati davomida boshkalar bilan doimiy muloqot va ijtimoiy guruhlarining ta'siri ostida ijtimoiylashadi 3. Psixologik yondashuv - insondagi psixik jarayonlar (sezgi, idrok, fikrlash kabilalar) tabiiy tavsifga ega, insonnинг yo'nalganligi - kizikishlari, qobiliyatları ijtimoiy hodisa sanaladi. 4. Yaxlit yondashuv - shaxs yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning rivojiga nafaqat uning faoliyatidagi o'ziga xosliklar, balki turmush tarzi ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayot natijalari - motiv, maqsad, qiziqish kabilalar ham uning rivojlanishida muhim rol uynaydi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismony) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'llim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatlari o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davlariga xos xususiyatlarni biliш va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik tarraqqiy etishi ham turli yosh dawlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D. Ushinskiy, Abdulla Avloniyar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tgan. Bolaning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish juda murakkab bo'lib bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlichcha bo'lishi mumkin.

Bolaning ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sustifki yuritishi, xovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayralsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydig'an, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tiziminining ta'siri bo'lib, pedagog ularni bilsishi zarur. Bolaning individual, o'ziga xos xususiyatini biliш uchun temparamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini biliш muhim. Temperament (lot. «temperamentum» - qismlarning bir-biriga munosabati) shaxsnинг individual psixologik xususiyatlari majuidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishda quyidagi davrlarga

bo'linadi: go'daklik (1 yoshgacha); bolalik yoshi (1-2 yosh); kichik yosh guruhi (3-4 yosh); o'rta yosh (4-5 yosh); katta yosh (5-6 yosh); maktabga tayyorlov davri (6-7 yosh).

E.I. Tixeeva tadqiqotida maktabgacha ta'llim yoshidagi bolalar tasavvurini shakllantirishga va nutqimi o'stirishga oid mashg'ulot turlari hamda uni o'tkazish o'tkazish metodlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotda ta'llimning ko'rgazmali bo'lishi, bolalar faoliyatiga tavanish zaruriyati, uning o'yin bilan bog'liqligi asoslangan. Shuningdek, o'qitish muayyan bilimlar doirasasi va nutqiy ko'nikmalarning pedagog tomonidan berilishi va uni bolalar tomonidan o'zlashtirilishidan iborat alohida faoliyat sifatida ifodalanadi [190: B.166].

L.S. Vigotskiy maktabgacha ta'llimning dasturiyiligi haqidagi masalani o'rtaqa quyди, maktabgacha ta'llim yoshidagi bolalarga mo'ljallangan bilimlarning muntazamlik printspini asoslab berdi,

maktabgacha ta'llim yoshidagi o'qish dasturining maktabbdagi ta'llim dasturidan farqini ko'rsatdi. U ta'llimning maktabgacha ta'llim yoshidagi bola kamoloti va uni maktabbdagi o'qishga tayyorlashdagi o'mini ko'rib chiqdi, bunda maktabbdagi ta'llim ishining mazmunini shundaygina ko'chirib quymaslikka chaqirdi [54: B.480].

Psixolog olimlar - A.G. Asmolov [34], V.V. Davydov [71], V.P. Zinchenko [94], V.E. Klochko [103], V.T. Kudryavtseva [115], V.V. Rubtsov [171], V.I. Slobodchikov [99], Ye.I. Isaev [99], D.I. Feldshteyn [21], B.D. Elkoniн [218]ning ta'kidashicha, «bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismony o'sishi bir qadar sekinlashadi. Ulardagi mustaqililik ortib, xissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalar shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda ko'rish-yashash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati kisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda o'yin faoliyati yetakchi rol uynaydi.

Tadqiqot ishimizda maktabgacha ta'llimda metakognitiv ko'nikmalarni qo'llash asosida bolalarni maktabga tayyorlashga keng yo'llochidigan ta'llimiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltiridi. O'rta guruh (4-5 yosh bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish uchun maxsus metodika asosida bolalarda metakognitiv

metodlar ta'siri o'rganildi. Bola to'rt yoshga yettach, uning jismoni o'sishi bir muncha jadallashadi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomilla shib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'tadi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdag'i bolalar ning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarini o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nioxoyatda serharakat, o'yin-qarok, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbiriga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlanirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muxofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahaniyatga ega. Ular bilan olib boriladigan didaktik mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvoqiqdir.

Tadqiqot doirasida biz katta guruh (5-6 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlarini o'rgandik. Fiziologiya, biologiya, psixologiya sohasiga oid adabiyotlar tahlilidan, bolalarning umurqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkinligi, shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerakligi, ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmag'an bo'lisini tahli qildik. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakkchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolalaring asablariga juda ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi va nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo'lgan takdirda uning oldini olish choralarini ko'rish lozim. Bu yoshdag'i bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim, chunki, ularning nutqida gi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. «Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarni rivojlanishi lozim. Dastlabki iqitsodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlanirishga aloxida e'tibor karatish maqsadga muvoqiqdir» [115: 592 b].

Maktabga tayyorlov guruhni (6-7 yosh bolalar)ning rivojlanish xususiyatlari o'rganilganda, bola hayotining yettinchi yilida undagi

harakatlar ko'lani kengayishi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanishi aniqlandi. 6-7 yoshi bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdag'i o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlananida hamda kattalar fikrini tinglash ishtiroqui shakllanadi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigienik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyooq uyg'otish lozim. Shu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim. Har qanday olti yoshi bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarning maktabga tayyorlarlik darajasini aniqlashda tashxis markazalariga tayanish lozim. Shu bilan bir qatorda maktabning moddiy-teknik bazasi olti yoshi bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Pedagogning pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloqodobi va shaxsий sifatları olti yoshi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshi bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshi bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan pedagoglar, pedagogik-psixologik muqtafai nazzardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak. Demak, maktabgacha yoshdag'i bola shaxsiming rivojlanishi o'ziga xos, murakkab jarayon sanaladi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Bu yoshdag'i bolalarning to'laqonli rivojlanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy (ijtimoiy muhit) va tarbiya kabi omillar muhim ahaniyat kasb etadi. Qolaversa, maktabgacha ta'lim yoshining o'zi ham o'ziga xos, alohida davrlarga ajratiladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning o'qitish va tarbiyalash ishiga mas'ul bo'lgan shaxslar - pedagog va ota-onalar, vasiylar bolalarning yosh davri xususiyatlaridan to'la xabardor bo'lishlari zarur.

Bola rivojlanishida metabolish masalalari nazarri va amaliy jihat-dan o'rganilib olimlar K. Rodjers [168], E. Erikson [218], Dj. Bru-

ner [45], J. Piaje [156; 157], A.V. Zaporojets [88], P.Ya. Galperin [59], L.A. Venger [51], S.L. Novoselova [146], N.N. Poddyakov [160] va boshqalar bola rivojlanishida metabolishing o'rni salmoqli ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatishadi.

Metabilish to'g'risidagi ilmiy farazlar tahili, shunday xulosa chiqarishga to'rtki bo'ldi:

Birinchidan, metabolish jarayonlari uning strukturali xarakterga ega ekanligini bildirdi;

Ikkinchidan, metabolish jarayonli o'yining funksional komponentlariga ega. Ushbu yo'nalishda ilmiy izlanish olib borgan olimlar bolaning rivojanishi tashqi va ichki motivlar asosidagi nazorat komponentlari yordamida maqsadli faoliyatga yo'naltiriladi, - degan farazni ilgari surishadi [109:230 b.];

Uchinchidan, maqsadni belgilash, qaror qabul qilish, maqsadni yo'naltirish, modellashtirish, bilish faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshirish, rejalashtirish [138; 178; 113];

«Kognitiv jarayonlar» va «metakognitiv jarayonlar» tushunchalarini tahlii aynan shu xulosalarga kelishga undaydi. Kognitiv jarayonlar tevarak-atrofni o'rganish, borliqni in'ikos etishni ta'minlaydi [cognition - bilim, bilish], metakognitiv jarayonlar kognitiv jarayonlarni bilishga yo'naltirilgan va ularni boshqarishga mo'ljallangan jarayondir [meta - ustidan]. Fikrimizcha, maqsadga yo'naltirilganlik, pedagogik sharoitlarni modellashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish- bularning barchasi bilish jarayonlariga emas, balki shaxsning sub'ektiv bilim olish faoliyatiga yo'naltiriladi.

Shaxsning sub'ektiv bilim olish faoliyati o'zidagi tanqis bo'g'an bilimlar sohasini «to'ldirishga», uni kengaytirishga yo'naltiriladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida metakognitiv bilimlar bola shaxsining kognitiv bilimlar sohasini kengaytirishni ta'minlaydi. Bunda maqsadga yo'naltirilgan bilimlar o'rganilayotgan ob'ektni in'ikos etish, perseptiv xatti-harakatni boshqarish: idrok qilish, ko'rish, eshitish, tinglash va boshqa; mnemik xatti-harakatni boshqarish: mazmuni tushunish, so'zlarini yodlash, tasvirlab berish va boshqa; mushohadali xatti-harakat: qiyoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa (Masalan, Anvarning shari Gulnoraning sharidan katta, yoki, guruhdagi tuvakda o'sayotgan gullarning rangi – qizil, ular hovlidida o'sayotgan gullarga nisbatan yorqin rangga ega va h.k.).

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda refleksiv mushohada qilish qo'nikmaları sust rivojlanganligi ayon. Biroq, fikrimizcha, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda metakognitiv bilimlar tanqisligiga qaramasdan, ularda metabolish jarayonlari, refleksiv ko'nigmalar aynan shu davrda rivojlanma boshlaydi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda yangilikni o'rganishga qiziqish, kashfiyotlar qilishga bo'lgan ishtiyoq ularda metakognitiv bilimlarni shakllantiradi. Ushbu holat bir qator tadqiqotlar natijasida va inson genezisidagi bilim egallahsga bo'lgan qiziqishi zamirida rivojlanganligining o'rgandik.

II BO'LIM.

METAKOGNITIV KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRUVCHI KLASTER VOSITASIDA BOLALARНИ MAK TABGA TAYYORLASHNING INNOVATION METODIK TIZIMI

2.1-§. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda o'quv tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil etishning mavjud xolati

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilishda ta'lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatti shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarus bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otishdan iborat. Pedagogning ko'p qirrali faoliyati va uning qibiliyati, ijodkor va fidoyi bo'shi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzurb masalalardan birdir. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan murabbiy tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishega qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan yondashadigan, donolik va ijodiy dadililik, ilmiy tahsil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismonty jihatdan har tomonlarma rivojlantrish uchun metakognitiv metodlarni qo'llash, sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim tashkilotlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini ni qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Maktabgacha ta'lim didaktikasining rivojlanishida A.P.Usova tad-qiqotlari printsipli ahamiyatiga ega. Bu tadqiqotlarda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni muntazam o'qitish mumkinligi va zarusligi isbotlangan, o'qitish ishlarinинг o'ziga xos xususiyatlari, maktabgacha ta'lim o'quv jarayonining tashkiliy shakllari va metodlari

belgilab berilgan [194]. Demak, ushuu tadqiqot bolalarni har tomonlara tarbiyalash va rivojlantrishdagi, ularni maktabga tayyorlashda ahamiyatlidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining iqtidorini metakognitiv indikatorlar asosida aniqlash va maktabga tayyorlashda diagnostika qilishda ularning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati psixologik-pedagogik jihatdan o'qitish va turbiyalash mahorati bilan uzziy bog'liqidir.

Bolalarning maktabga tayyorlik darajasini belgilovchi indikatorlar (refleksiv mushohada, evristik faoliyat konstruktiv, kogerent, digital mushohada, bashorat) ni tizimlashtirish asosida ularni maktabga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mumkin.

Tadqiqot mobaynida (2017-2020 yillarda) biz maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning metakognitiv ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun Toshkent shaxar, Toshkent, Andijon, viloyatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlарining 112 nafar pedagoglari uchun maxsus anketalar tarqadik (-ilova). Anketa savollariiga berilgan javoblar tahlil etilganda, MTT pedagoglari maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarus bo'lgan metakognitiv metodlarni tizimga solish hamda tizimlashtirish masalalarini to'liq tushunib yetmaganligi aniqlandi. «Bolaning o'z-o'zini anglashi nimalarda namoyon bo'ladir?», «Bolalarning metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda qaysi metodlar-dan foydalanasiz?» kabi savollarga 56 foiz respondentlar metodlarning nomlarini keltirishga qiyonalishganligini bildirishgan. «Bolaning psixik taraqqiyotida o'yinning ahamiyati haqida so'zlab bering» savoliga 78 foiz MTT pedagoglari qoniqarli javob berishgan, xususim, ular «Bolaning iqidorini aniqlashda qaysi metodlardan foydalansiz?» savoliga deyarli 88 foiz respondentlar bolaning mashg'ulot mobaynidagi holatini kuzatish, bunda uning diqqati xususiyati, tashqi qo'zg'atuvchi bilan ta'sirlanishi, temperamenti, xatti-harakatining sur'ati, emotsional kechinmassining o'garishi to'g'risida ma'lumotlari to'plashga harakat qilishlari to'g'risida fikr bildirishgan. Responentlarning 56 foizi tashqi kuzatishda bolaning tafakkuri bo'yicha ham ma'lumotlar olish: fikrning muayyan ob'ektiya yo'naltirilganini, tishqi qo'zg'atuvchilar ta'siriga berilmaslikni, chehradagi tashvishni izirobni, sinchkovlik, teranlik, termulish kabi ruhliy holatlarni

M.Zaynitdinovning «Bolalarning mustaqil fikrlesh faoliyatlarini rivojlantrish omillari» maqolasida, boshlang'ich sinf bolalarida mustaqil fikrleshni shakllantirishni uch bosqichda amalga oshirish zarurligi ko'rsatib berilgan. Ya'ni birinchi bosqichda ta'limga yillarning birinchi kunlaridan boshlab bolalarni mustaqil harakat qilishga, doskada to'g'ri va hattoki noto g'ri bo'lsa ham erkin harakat qilishga o'regtiliadi. Ikkinchi bosqichda bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga o'tiladi. Bunda bola unga berilgan masalada nima ma'lum va nomalum ekanligi haqida fikr yuritishi; masalani qisqa bayon etib bera olishi, uning shartini tuza olishi, shartini tahsil qila bilishi hamda masalaning to'liq mattini tuza olish malakasini egallashi muhimdir. Uchinchchi bosqichda esa, masalarning shartini o'zgartirish va uni yeching topshirrig'i berilishi mumkin. Bola ilgari o'zlashtirgan bilim, qo'nikmalar asosida mustaqil, ijodiy fikrlagan holda masalani yecha olish ko'niknasi malaka darajasiga o'sib o'tadi [86]. Mazkur maqolada muallif «mustaqil fikrlesh» tushunchasining mohiyatinini ochib berishga e'tibor qaratmagan. Balki muallif boshlang'ich sinf bolalarining mustaqil fikrlesh faoliyatlarini rivojlantrish haqida fikr yuritadi. To'g'ri XX asning 50-60 yillarida o'tkazilgan tadqiqot natijalari kichik maktab yoshi bolalarning nazariy fikrlesh olishini isbotladi. Biroq, bu yoshi davrida bolalarda «yaqin zonadan rivojlanish» ustun bo'lishini ham tuddiqotchilar o'z asarlardida ta'kidlab o'tishadi. Shuning uchun bizningcha, ularning vazifalarini mustaqil bajarishga o'tishlari hali ularda mustaqil fikrlesh faoliyatini rivojlantrisiga imkon beradi, deb hisoblab bo'imaydi.

J.Musaevning «Mustaqil fikrlesh salohiyatini rivojlantrish mashqlari» nomli maqolasida aqning turli muskulularini mashq qildirish orqali mustaqil fikrlesh salohiyatini rivojlantrish masalasi o'lsa (maqolaning ba'zi o'rinalarda «bolav» so'zi tilga olingan), qaysi — kichik maktab yoshimi, o'smirmi yoki o'spirinmi? ushbu savollarga javob berilmaydi. Yuqorida keltingilan maqolalar singari bunda ham «mustaqil fikrlesh», maqolaning nomlanishidan kelib chiqib,

«mustaqil fikrlash salohiyati» tushunchalariga ta'rif uchramaydi [139].

D.Solievanning «Bolalarda bilish mustaqilligini shakllantirish» nomli maqolasining mavzu doirasi to'liq mustaqil fikrlash bilan bog'liq bo'imsa-da, mualif «mustaqililik», «mustaqil fikrlash» tushunchalariga e'tibor qaratib, «bilish mustaqillig» tushunchasiga ta'rif bermaydi. Muallifning izohlashicha, «mustaqililik – shaxs ijodiy faoliyatining muhim bir komponenti hisoblanadi» [182]. Maqolada mustaqil fikrlashga ikki o'rinda ta'rif beriladi. Birinchi ta'rif: «Psixologiya va pedagogikada mustaqil fikrlash bolalarning o'zgalarining yordamisiz bilish, aqliy masalalarni yechish layoqati sifatida talqin etiladi». Ikkinchchi ta'rif: «Mustaqil fikrlash L.A. Ros-tovitskaya fikricha, shaxsning shunday xususiyatki, uning rivojalanish qomuniyatlarini shaxsning jamiyat va jamaa bilan ijtimoiy-psixologik bog'liqliksiz aniqlab bo'lmaydi» [196: 133 b].

S.Yaminovaning «Bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda sisenariy o'qtish usulidan foydalanish» mavzusidagi tadqiqot ishida «mustaqil fikrlash» tushunchasiga ta'rif berilgan [223: 143 b].

Z.T.Nishonovning «Mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslar» mavzusidagi doktorlik monografiyasida mustaqil fikrlash ijtimoiy psixologik omilar bilan bog'liq bo'lgan shaxs xislati ekanligini asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsad va vazifalari doirasida o'smir va o'spirinlarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ijtimoiy psixologik va aqliy omillari maxsus psixologik trening dasturi yordamida o'rganilgan [145: 391 b].

Sh.Nurullaeva esa, «Boshlang'ich sinf ona tili darslarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish metodikasi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishida «mustaqil tafakkur», «tafakkurning mustaqilligi», «mustaqil fikrlash» tushunchalarini aralashtirigan holatda foydalanadi. Uning fikricha, «mustaqil fikrlash shaxsning shunday qobiliyatiki, bu jarayonda inson narsa va hodisalar xususida o'z qarashlariga ega bo'ldi. Mustaqil fikrlash – bu inson sezgi organlari va aqliy faoliyatning birligi natijasi o'laroq, mustaqil ravishda tahlil qilish, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqoslash, aniqlashtirish, mayhumlashtirish kabi fikriy amallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan aqliy faoliyatdir» [147: 175]

b). Tadqiqotchi mustaqil terminining ancha mukammal ta'rifini berishga harakat qilgan.

Adabiy ta'lim jarayonida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muammosi ustida tadqiqotlar olib borgan pedagog olma Q.Husan-boyeva inson tafakkuri tahliliga bag'ishlangan qator adabiyotlar va o'z kuratishlariga asoslanib, mustaqil fikrlashga quyidagicha ta'rif berigan: «mustaqil fikrlash insonning o'z oldida turgan muammoni aniq maqsad va vazifalarni belgilagan holda bilimi hamda hayotiy tajribalariga tayanib, intellektual imkoniyati darajasida turli yo'l, usul, vositalar yordamida mustaqil ravishda hal qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir».

Biroq, maktabageacha ta'limda bolalarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'z yechimini kutayotgan muammolar sirasiga kirishini adabiyot va tadqiqotlar tablibidan aniq bo'ldi.

Metakognitiv tushunchasiga berilgan ta'rifni asos qilib olgan holda, «bolalarning metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish» jumlasining mohiyatini ochib berish tadqiqot ishimizning muhim tarkibiy qismini o'zida ifoda etadi. Buning uchun avvalo, shakllanish va shakllantirish tushunchalarining mazmuniga e'tibor qaratish zarur. Ushbu so'zlar tahviliga e'tibor qaratsak «O'zbek tilining izohli lug'ati»da «shakllanmoq» so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: «1. Ma'lum bir shaklga kirmoq, shakl, tus olmoq. 2. Yuzaga kelmoq, yaralmoq» [237].

Shakllanish – pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, ko'pincha «shaxsning shakllanishi» tarzida ishlataladi. Jumladan, pedagog olim Yu.K. Babanskiy shaxsning shakllanishi pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, muhit, irlsiyat, tarbiya ta'sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasidir, degan ta'rifini beradi [36: 626 b].

V.A. Slastenin, I.F. Isaevlarning fikricha, shakllanish – hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy hatti-harakatlar ta'sirida inson rivojlantishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi – bu ijtimoiylashuv, tarbiya va o'zini-o'zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. Shakllantirish – «aniq shaklga kiritish, tugallanganlik»ni bildiradi [181: B.89].

Bizingcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy

yondashuv asosida I.P. Podlasay tononidan to'liqroq ochib berilgan: «Shakllanish – hech qanday istisnosiz omillar – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik va boshqalarning ta'sirida insonning rivojlanish jarayoni. Shakllanish – undan keng foydalanilayotganligiga qaramay, hali to'liq o'zlashtirilmagan pedagogik kategoriya [16]: B.74]. Shakllanishning mazmuni ba'zi holatlarda juda qisqa ketadi, ba'zan esa, haddan tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nasr etilgan pedagogik adabiyotlarda shakllanish atamasi ba'zan bosqarilmaydigan, shaxsga ta'sir ko'rsatuuchi tasodiflarni aniqlash uchun qo'llanilgan. Masalan, psixolog olim N.S. Leytes shakllanishni stixiyali tarbiya – «ongli faoliyatdan mustaqil tarzda odamlarga ta'sir etuvchi turli shart-sharoitlar» deb nomlashni taklif etgan» [120: 98 b].

Bolalarda metakognitiv ko'nikmalarining shakllanishi – ham tashqi, ham ichki rag'bat orqali ta'sir etish jarayoni va natijasidir. Bu esa, bilim o'zlashtirish vositasida amalga oshiriladi.

Bilim – bir butunlikni taskhil qiluvchi qismilar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'iqlikdir. Bilim insoniyat tononidan mustaqil hayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda zarur bo'gan fan asoslarini qonunlar va tushunchalarini o'zlashtirish natijasidir.

Bilimi hayotda ko'p samara beradiغان qilib qo'llay olish uchun bilim bilan birga ko'nikma va malaka hosil qilish lozim. Bilim bahsida kerak bo'lsa, ko'nikma va malaka mehnat faoliyatida, dunyoni o'zlashtirishda zarur. Demak, bolalarda metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida maqsad, pedagog faoliyati, bola faoliyati, mazmun, metod, shakl, vosita, natija ishtirot etadi. Mazkur tarkibiy qismalar bolalarda metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini yaxlit tizim sifatida qarashga imkon beradi va barchasi ko'nikmalarni egallash jarayoni bilan bog'iqliq holda qaraladi.

Ko'nikma – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismalarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va bola – tabalarda ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir. Bolalarda metakognitiv ko'nikmalarini shakllantirishda muayyan psixik operatsiyalaridan foydalanish talab etiladi. Bu

tablar: **analiz, sintez, taqqoslash, abstraktsiyalash, hukm, xulosa** chiqurish va boshqalar hisoblanadi.

Ushbu talablarning faolyatda namoyon bo'lish jixattarini ko'rib chiqumiz:

Analiz – tafakkur operatsiyasi (hatti-harakatlar), uning yordamida narsa va xodisalarni fikran yoki amaliy ravishda bo'lub, ularni ayrim qismalarini, xususiyatlari tahlil qilinadi.

Sintez – tafakkur operatsiyasi bo'lub, bir narsa va hodisalarining analizda bo'lingan ayrim qismalarini sintez yordamini bilan fikran yoki amaliy ravishda birlashtirib, butun xarakatga keltiriladi.

Taqqoslash – tafakkur operatsiyasi hisoblanib, bu operatsiya vositasi bilan ob'ektiv dunyodagi narsa va xodisalarning bir-biriga o'xshashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi.

Abstraktsiyalash – shunday bir tafakkur operatsiyasidirki (hatti-harakatlar), bu operatsiya yordamini bilan moddiy dunyodagi narsa va xodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib ana shu xususiyatlardan narsa va xodisalarning muhim bo'lmagan ikkinchi darajali xususiyatlarini fikran ajratib olishga imkoniyat yaratiladi.

Umumlashtirish – narsa va xodisalarni umumiy hamda muhim belgilari bo'yicha umumlashtirish demakdir. Albatta, maktabgacha tu'im yoshidagi bolalar mazkur tafakkur operatsiyalarini to'laqonli egallay ololmaydilar. Biroq, ularda mazkur operatsiyalarining elementar, ilk ko'rinishlarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bu ularning makkabga tayyorlik jarayonining to'g'ri tashkil etilganidan dalolat beradi.

Hukm, xulosa chiqarish va tushuncha tafakkurning spetsifik formalaridir. Narsa va xodisalarning belgi va xususiyatlari tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deb ataladi. Demak, tabiat va jamiyatdagagi harakat qoidalari va me'yorlarini tushunish yordamida bola ongli, mustaqil, mantiqiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lishi mumkin. Bu esa, yangicha yaxlit tafakkur sari yo'l ochadi. Hozirgi ijtimoiy vaziyatda birinchi ahaniyatli vazifa sifatida bolalarning o'z faoliyatini tadbiq etishi, o'z-o'zini rivojlanishini, intellektual, hissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini faollashtirishiga erishish nazarda tutildi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'llimi bosqarish tizimida institusional islohotlar amalga oshirilib maktabgacha ta'llimi rivojlananti-

rish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik holatlari yaxshilandirma maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari ijtimoiy qo'llab-quvvatlandi.

Maktabgacha ta'limni boshqarish va didaktik ta'minotini yanada rivojlantrish qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishini taqozo etadi. Bu jarayon qanday namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz:

- 1) maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv masng'ulotlari bolalarning intellektual jihatdan rivojlanishlarini ta'minlaydigan metakognitiv metodlarni qo'llash;
- 2) maktabgacha ta'limda ta'lim berishning zamonaaviy shakllarini joriy etish, axborot-kommunikatsion vostitalarning ko'lalimi kengaytirish;
- 3) didaktik jarayonni rejalashtirish va tashkil qilishning zamonaaviy innovasion usullarini, sifat menejmenti tizimlarini, aniq natijalarga erishishga qaratilgan maqsadli indikatorlarni, xodimlarni tanlab olish, motivatsiya qilish, rivojlantrish va boshlash usullarini joriy etish;

- 4) barcha bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim olish uchun bir xil imkoniyatlarni ta'minlovchi maktabgacha ta'limning samarali innovasion tizimining shakllanishi;
- 5) maktabgacha ta'limni insонning butun hayoti davomidagi uzuksiz ta'limning birinchi bosqichi sifatida belgilash, bolani shaxs sifatida jismoniy, intellektual va axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashda uning roli oshirilishi;
- 6) maktabgacha ta'lim tashkilotlarining namuna va turlari xilma-xilligi asosida maktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar amalga oshirilishi, mazkur sohada sog'lom raqobat muhitining yaratilishi;
- 7) zamonaaviy energiya va resurs tejobochi texnologiyalarni joriy etish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bino va inshootlarini qurish, reconstruktsiya qilish va kapital ta'mirlashning kengaytirilishi, ularning o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojantiruvchi o'yinlar va o'yinchozqlar, badiiy adabiyotlar, mebel, kompyuter texnikasi, o'quv uskunulari bilan jihozlanishi;
- 8) maktabgacha ta'lim sohasiga xususiy sektorning jaib qilinishi, uning ijtimoiy jawobgarligi oshirilishi, molijalashtirish manbalaring kengaytirilishi va maktabgacha ta'lim xizmatlari turlarining ko'payishi;

9) maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning ko'paytilishi, maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligining oshirilishi, pedagog xodimlar mehnatiga munosib haq to'lashning ta'minlanishi;

10) maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning ijtimoiy-davlat tizimi joriy etilishi;

- 11) olti yoshiqli bolalarning majburiy bir yillik bepul umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorlash bilan to'liq qamrab olinishining ta'minlanishi;
- 12) 3 - 7 yoshgacha bolalarning 80,8 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishining ta'minlanishi;
- 13) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog xodimlar soni 247,7 mingtagacha yetkazilishi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning odini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, turbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarini hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar fioq qo'llanmoqda.

Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilmoqda:

- 1) maktabgacha ta'lim tashkilotlarni sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va yetkazib beruvchilarning narx siyosatiga umul qilishini nazorat qilishning shaffof markazlashtirilgan tizimini yaratish;
- 2) tayyor taomlarni tayyorlash va maktabgacha ta'lim tashkilotlariiga yetkazib berish uchun ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini, jumladan autsorsing asosida jaib qilish;
- 3) maktabgacha ta'lim tizimida sog'liqi saqlash xizmatlarining

sifatini oshirish, birlanchi tibbiy-sanitariya yordami xizmatlari bilan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

4) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'minoti uchun munosib, jumladan, to'laqonli, to'g'ri, balanslashtirilgan, sog'iom ovqatlanish, asoslangan tibbiy ko'rsatmalarda belgilangan hajm va tezlikdagi, ko'ngi lochar mashg'ulotlar va bilim olish elementlari mavjud faol o'yinlar va mashqlardan iborat sharoitlarni yaratish;

5) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarga barvaqt kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarda asosiy kompetentsiyalarni zaturiy sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvni va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash.

Konseptsiyani amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: fanning ta'lim amaliyoti bilan aloqasini ta'minlaydilar, ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalari pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga o'z vaqtida joriy etilishi mexanizmini amalga oshirishi; pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilmiy-metodik assoslarni ishlab chiqadilar, shuningdek ta'limning ushbu turi muassasalarini o'quv-metodik hujattar bilan ta'minlanishi;

ta'lim dasturlarining uzlusizligi va izchilligini hisobga olib, tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlanishga yo'naltirilgan o'qitishning interaktiv metodlaridan, shuningdek, zamонавиy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalananib pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha namunaviy o'quv rejalari va dasturlarni ishlab chiqilishi;


ushbu sohadagi xorijiy tajribani, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha eng yaxshi ta'lim muassasalarining yutuqlari umumlashtiriladi va targ'ib qilinadi; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida masofadan turib o'qitish tizimi ishlab chiqiladi va joriy etiladi; tarqatma material ishlab chiqiladi va ushbu materiallar ko'paytilishi yo'nga qo'yiladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning bilmlarini tasavvurlar, tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar va sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi. Metakognitiv ko'nikmalar asosida bolalarni maktabga tayyorlash vazifasi bolalarda voqeа va hodisalarini to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilmlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatları (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oладиаr. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida pedagog bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilmlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim bolaning ijtimoiy mehnatga, o'quv faoliyatiga munosabatini shakllantiradi.

Metokognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi klaster asosida biz quyidagilarni didaktik tamoyillarga ustuvorlik berishga, mukammallashtirishga e'tibor qaratdik: davlat o'quv dasturlari, tarbiya metodlari va texnologiyalari, ta'lim tarbiya shakllari va vositalari, individuallashtirilgan o'quv-tarbiya traektoriyalari, ijodiy fikrlashni shakllantirish va rivojlanishiga qaratilgan pedagogik texnologiyalar va baholovchi pedagogik diagnostika, oila, mahalla, maktab bilan xamkorlik tizimi, o'quv-tarbiya jarayonida qayta aloqa tizimi hamda bitiruvchi shaxsining modelini o'ziga qamrab olishi kerak (2.2.1-jadvalga qarang):

2.2.1 -jadval


Metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta'llimiga tayyorlash



Tadqiqotlarimiz mobaynidagi metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktabga tayyorlashda maxsus tajribaviy dastur ishlab chiqildi. «Metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktabga tayyorlash» dasturida «integrasion mashg'ulot» bo'limi takomillashtirilib borridi. O'tkazilgan pedagogik va psixologik ilmiy tadqiqot ishlari turli yoshdagi bolalarga tevarak-atrof to'g'risida beriladigan bilimlarning taxminiy hajimini belgilash, ularni murakkablashtirib borish imkonini beradi. Metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta'llimiga sifatli tayyorlashning umumiy modeli ijtimoiy-pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojlariga asoslangan ta'llim talablarini qondirishga qaratilgan (2.2.2-jadvalga qarang):

2.2.2 -jadval


Metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster vosisida bolalarni maktabga tayyorlashning innovation metodik tizimi



Maktabgacha ta'llimda metakognitiv ko'nikmalarini shakkllantiruvchi klaster samaradorligini aniqlash modelining asosiy komponentlari bu jamiyat, davlat, ota-onalar va bolalarning talablari, variativ yondashuvning asosiy tarmoyilar, ta'llim-tarbiya maqsadi, ta'llim-tarbiya jarayoni, maktabgacha ta'llim muassasasini sifatlari bitirish va uzluksiz ravishda bolalarni bilish jarayonini va ijodiy qobiliyatini shakkllantirish va rivojlantirish dinamikasini baholovchi pedagogik diagnostika tizimi hisoblanadi (2.2.3-jadvalga qarang):

2.2.3 -jadval.

Metakognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash modeli



diagnostika tizimi **boshlang'ich, oraliq** va yakuniy diagnostikalarini o'z ichiga olgan bo'lib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- bolaning makkabgacha ta'lim muassasasiغا ilk qadam qo'ygan dagi shaxsiy qobiliyatlarini, qiziqishlarini aniqlash (boshlang'ich diagnostika);
- bola rivojlanishining ijtimoiy vaziyat xususiyatlarni tahli qilish (oraliq diagnostika);
- maktabaga tayyorlash jarayonida bolaning rivojlanish xususiyatlarni, uning maktabda o'qishga tayyorligini aniqlash (yakuniy diagnostika).

«Metakognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktabga tayyorlash» dasturida bolalarning «jismoniy rivojlanganlik darajalarisi», «Nutq va tafakkurning rivojlanganlik darajasi», «Bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash»ga doir asosiy bo'limlar ishlab chiqildi. Bu bo'limlarda bolalarni jismoniy jihatdan yetuk, sog'iom va baquvvat qilib tarbiyalash, ularning nutqiy tafakkurini rivojlantrish, so'z boyligini oshirish ularning mantiqiy tafakkurini va hisoblash malakasini o'stirish hamda bolalarda naftsat va orastalikni shakllantirish kabi jihatlariga keng e'tibor qaratildi. Shuningdek, tabiat bilan har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan, ba'zi bir ijtimoiy voqealar, narsalar, ularning sifat va xususiyatlari bilan tanishtirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Maktabgacha yoshdagи bolalar bu bilimlarini faqt mashq'ulot jarayonida emas, balki o'zlarining kundalik hayotlariда, o'yinlarda sayr vaqida egalashlari dasturda ko'rsatib o'tildi.

Metakognitiv ko'nikmalarini shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy yo'malishlari quyidagiilar:

- bolalarni intellektual rivojlantrish;
- bolalar nurqi va tafakkurini rivojlantrish;
- ma'naviy-madaniy yetuklik;
- bolalarga yetarli bilim berish;
- har bir yoshta xos bilim va malakalar;
- materialning bir maqsadga qaratilganligi;
- mahalliy materiallardan foydalanish;

Uzlusiz ravishda bolalarni bilish jarayonini va ijodiy qobiliyatini shakllantirish va rivojlantrish dinamikasini baholovchi pedagogik

tabiatdagi voqealar,

ta'limga doir bo'liimlar orasidagi bog'liqlik.

Bolalarni uy jihozlari va buyumlarini (mebel, idishitovoq, kiyim, o'yinchoq mashg'ulotlar uchun material) bilan tanishtirish, ularning rivojanishda katta ahamiyatga egadir. «Metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klaster asosida bolalarni maktabga tayyorlash» dasturida har bir yosh guruhi uchun muayyan bilimlarni egallab olishni nazarga tugadi. Masalan, birinchchi guruhi pedagogsi bolalarni buyumlarning joylashishini bilib olishga o'rgatadi. Keyinchalik bolalar boshqa xonalarda nimalar bortigini, u yerda bolalar va kattalar nima ish bilan shug'ullanishni bilib boradilar. Masalan, musiqa xonasida musiqa mashg'ulotlari, bayramlar o'tkaziladi, oshxonada ovqat pishiriladi va h.k. Shuningdek, pedagog, bolalarni yaqin atrof, ko'chalarmi, o'z o'yin maydonchasini bilib olishga o'rgatadi. Ayniqsa, katta guruh bolalari o'z uylari manzilini, bog'chadan uya keta-digan yo'lni yaqin oradagi maydon yoki xiyobonlarga borish yo'lini bilishlari kerak. Bolalarni tabiat bilan bevosita aloqada bo'lishtari ularning har tomonlama rivojanishlarida muhim ahamiyatga egadir. Bu hol ularning aqly qobiliyatlarini tarbiyalashda axloqiy hamda estetik hislarini rivojanitirishda quvnoqlik, tetiklik, jismoni y hamda ruhiy tomonidan bardoshli bo'lishtarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarning tabiat bilan bevosita aloqada bo'lishi ularning sensor tarbiyasiga katga hissa qo'shadi. Tabiat o'zining mo'lko'l bo'yo-qlari, shakllari, tovushlari bilan analizatorlarini qo'zg'atadi. Tabiat bilan aloqada bo'lish estetik tarbiya vazifalarini hal etisinga katta yordam beradi. Chiroliy manzaralar, har xil kapalaklar bolalarda quvонch hissini uyg'otadi. Pedagogning vazifasi bolalarda tabiat go'zalligiga, uning rangbarangligiga qiziqish uyg'otishdir. Tabiat o'z go'zalligi hamda rang-barangligi bilan bolalarning hissiga va xayoliga ta'sir etib, ijodiy folyiatining rivojanishiga yordam beradi. Tabiat bolalarda vatanparvarlik hissini uyg'otishda ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning yoshligida tabiat boyligidan olgan taassurotlari Vatan to'g'risidagi tushunchalarini aniq mazmun bilan boyitadi. Bolalarning katta yoshdagilar bilan o'zaro muloqoti ularni har xil kasbdagi kishilar mehnati bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda pedagogning asosiy vazifasi bolalarda

kattalar mehnatiiga hurmatni tarbiyalash, ularning mehnat faoliyatini bolalarga tushuntirish va mehnat qiliish ehtiyojini uyg'otishdir «Metakognitiv metodlar asosida bolalarni maktabga tayyorlash» dasturida bolalarning o'yinlari, rasmlari ham ularda texnika va mehnatga qiziqish uyg'otadi. Kattalarning mehnati bolalar o'yinining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bolalar o'z o'yinlari onalari va pedagoglari mehnatidan boshlab to yangi shaharlar hamda kosmik kegalar qurilishi gacha aks ettradilar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalardagi axloqiy sifatlarni kishilarga, jamoaga munosabatni tarbiyalashda kattalar mehnati bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mehnatkashlar va ularning mehnatlari bilan tanishish bolalarda o'z yurtiga, xalqiga va boshqa xalqlarga nisbatan hurmat va mehr uyg'otadi. Demak, kattalar mehnati va tabiatni kuzatish bolalarda estetik hislarni, shakllantirishga yordamlashadi, ijodiy faoliyat uchun material beradi. Hamma oilalarda umumxalq bayramlari -> Navro'z, «Hayib», «Yangi yil», «Mustaqillik» kuni va boshqalar keng nishonlanadi. Bolalar bu bayramlarda qattashadi. Katta yoshidagi bog'cha bolalariiga har bir bayram va tantananing ahamiyatini ularning yoshlariga mos holda tushuntirishadi. Bu o'rinda pedagogning vazifasi-bo'latarning hissiyotlarga ta'sir etib, ularda o'z xalqidan hamda uning qadriyatlaridan g'ururlanish hissini shakllantirishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi klasterni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash uchun o'quv folyiatida bilish jarayonlarining o'mni beqiyos ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Bolalarning maktabga tayyorgarligini amalga oshirishda sezgi katta rol o'yaydi. Sezgi borilqdag'i (real) narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlarining tasiri natijasida bola ongida aks etishimi inobatga oladigan bo'lsak, bolalning bilish motivlari ayman shu sezgilar orqali oshiriladi. Sezgining fiziologik asosini I.M. Sechenov va N.P. Pavlovlar o'rganishgan. Olimlar narsa va hodisalarning ayrim belgilarni, xususiyatlarini aks etirishdan iborat bo'lgan sezish protsessining fiziologik mohiyati analizatorlar xaqida gi ta'limotlarida atroficha ochib berilgan hamda analizatorlarning uch qismi ajratib ko'rsatilgan: 1. Rikatorlar. 2. Afferent, efferent, nerv tohalari. 3. Bosh miyadagi yoki orqa miyadagi markaziy qism. Sezgi o'z mohiyati jihatidan birmuncha sodda psixik jarayon (aks

ettirish jarayoni) bo'llishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbadir. Akademik I.P.Pavlov organizmning hissiy aks ettirish apparatlarini analizatorlar deb ataydi [151: 168 b]. Mana shuning uchun har bir sezgi organi analizatorlarning barcha qismlarini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, akademik I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, xar bir analizator asosan uch qismdan iborat: 1) Tashqi ta'sirlarni qabul qilib oluvchi periferik qism (buni odatta retseptor deb yurgiziladi); 2) taassurotni markazga olib boruvchi (afferent) va markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi (efferent) nerv tolatari; Z) analizatorlarning opqa yoki bosh miyadagi markaziy kismi. Makkabgacha yosh davrida ranglarni farqlashda ham ancha o'sish kuza tiladi: aniq va tiniqligi ortadi.

Z.M. Istominaning tadqiqotlari bola hayotining ikkinchi yilda ixtiyorsiz tarzda to'ptta asosiy ranglarni farqlaydi: qizil, sariq, ko'k, yashil. Oralik ranglarni differentsirovka qilishda, ya'nin mandarin (oranj) rangini, havor rang va siyoh ranglarni ajratishda biroz qiynaladi. Eshitish sezgirligi ham bog'cha yoshdagilarda o'ziga xos tarzdagi xususiyatlarga ega [96: B.51]. Tadqiqotlarning ko'psatishicha, eshitishning nozikligi 13 yoshgacha bo'lgan bolalarda kattalarnikiga nisbatan ancha past bo'ladi va bu yosh ortishi bilan o'sib boradi. Bog'cha yosh davrida shuningdek tovushlarning balandligini farqlash qobiliyati ham rivojananadi. Biroq, fonematik (og'zaki) va musiqani eshitish parallel tarzda shakllanmaydi. Fonematik eshitish birinchini yilning oxirlariga borib rivojanib boradi va bog'cha yosh davrining dastlabki bosqichlarida o'z ona tilining deyarli barcha tovushlarini amaliy farqlay oлади. Passiv nutq bilan bir qatopda faol nyotni ham egallaydi. Bu davrda hid bilish sezgisi ham rivojananadi. Katta guruh bolalari hidlarni farqlashda ham xatoliklarga uchraydi. Teri tuyish hamda og'irlikni sezsa olish xususiyati ham rivojananadi. 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda bu qobiliyat taxminan ikki barobarga ortadi.

A.Ya. Xolodnayaning tadqiqotlari ko'psatishicha, fazoda mo'jal olishning rivojanishi bolani o'z tana a'zolarning fazoviy munosabatlarni differentsirovka qilişidan o'ng, chap qo'lini, juft tana qismlarini ajratib nomlashdan boslanadi. Idrak jarayoniga so'zning qo'shilishi, mustaqil nutqni o'zlashtirishi sezilarli daraşa fazoviy munosabatlar, yo'nalishlar haqidagi bilimlarining mus-

tahkamlanishiga yordam beradi [202: 272 b]. Kichik bog'cha yosh davridagi bola geometrik shaklni idrok qila turib odatda uni biror bir predmet bilan o'xshatadi (kvadratni ko'pincha «deraza», «kubik» va b., deb; aylanani – «koptok», «g'ildirak» kabi nomlaydi). O'rta va katta bog'cha yoshdagilalar duch kelgan shaklni farqlash ehtiyo-jini sezadilar. Ular ko'pincha predmet nimaga o'xshashi va ularda mavjud tushunchalar orasidagi boshqa turli shakllardan nimesi bilan farqlanishini aniqlashga urinishadi. Vaqtni idrok kilish bolalar uchun ancha qiyinchilikni uyg'otadi va buni tushunish ham mumkin. Axir vaqt ko'pgazmali shaklga ega emas, o'tib ketuvchi, qaytarilmas, uni idrok qilish sub'ektiv xolatga bog'liq hamda shaxsiy xarakterga ega. Psixologlar boladagi vaqt va fazoni idrok qilishdagi umumiylilik ni e'tirof qiladilar. Maxsus tadqiqotlar tushunchalardagi umumiylilik bolaning dunyoni yagona vaqtli-fazoviy kompleksda aks ettira olish qobiliyatiga ega ekanligidandir, degan fikrga asos bo'la oladi. Rus psixologlari badiiy idrokning rivojanishini shaxs rivojanishining natijasi sifatida ko'pishadi. U insonga tyg'ma ravishda berilinmaydi. Bola san'at asarini ayman shu tarzda darrox idrok qila olmaydi, rivojanishning dastlabki pog'onalarida bola uchun unga nisbatan harakati, utilitar munosabat xos (rasmdagi tasvirni bolalar uslab, paypaslab ko'padilar, uni ushlab ko'padilar va h.k.). Biroq badiiy idrokning ilk kurtaklari bog'cha yosh davrida namoyon bo'la boshlaydi. Ta'ilim va tarbiya ushbu insonga xos bo'lgan qobiliyatlarining rivojanishida hal qiluvchi rolni o'yinaydi. S.Vigotskiy eksperimental yo'i bilan V.Shtern tomonidan ilgari surilgan idrok bosqichlari rasmlarni idrok qilishni emas, balki idrok hamda nutq rivojanishining ma'lum bir bosqichidagi o'zaro munosabatini izohlaydi, degan tahsilini bildiradi [53;54;55;56]. Badiiy idrokda tasvirning mazmunini tushunishda asarning kompozitsiyasi, rasmning mazmuniy va strukturaviy mohiyatining muvofiq kelish darajasi katta axamiyatga ega. Idrok qilishda narsa va hodisalar yaxshi tarzda aks ettiladi. Idrok qilish tumush tajribasiga bog'liq. Shuning uchun bolalarga narsaning nomini va yana uning belgilarni ihususiyatlarni ham aytib berish ahamiyyatlidir.

Ekskursiyalar, hayvonot va o'simliklar dunyosi bilan tanishtrishda bolalar idrokida sistemaning rolini oshirish kerak. Bu ularda tasavvurni shakllantiradi. Shakllarni idrok qilish rivojananadi. Makon

va zamoni idrok etish qiyinchilik bilan kechadi. Ularga narsa qanchalik uzoqlashsa u shuncha kichik tuyuladi. Maktabga chiqqanda makon o'chovlari metr, santimet, kilometr kabi tushunchalarni o'zlashtiradi. Kechas, bugun, ertaga, indinga, avval, keyin oy, yil, ertalab, kun, tun, kechasi peshin kabi tushunchalarni idrok qilishda, tushumishda va ayritisda qiyonalishadi. Turmush tajribalari ortishi bilan, bog'chada masng'ulotlar o'tishi orqali makon va zamoni idrok qilish shakllanadi. Inson ongining butun kuchini bir yerga to'plab, muayyan bir narsa yoki hodisaga faol yo'naltirilishi tushuniladi.

Bog'cha davrida bolalarda ixtiyoriy turli rivojlanish boshlanadi. Tarbiylarga bo'yusunish, vazifalarini bajarish, hikoyalarini tinglash va b.q. O'yin faoliyatida tashabbus bilan malum maqsad ilgari suriladi va buning natijasida diqqat bir joyga to'planadi. Ixtiyoriy diqqat irodaviy protsess bilan bog'iqlik bo'lagni uchun bu turni o'zlarini mustaqil ravishda tashkil eta olmaydilar. Tarbiyachi yoki katta odam yordam beradi va bu diqqat juda uzoq vaqt davom etmaydi. Maktabgacha davrdagi bolalarda xotira. Idrok qilingan narsa va hodisalarini, kechirilish tuyg'u, o'yagan fikr, qilingan harakatlarni esda qoldirish, esda saqlash va keyin esga tushirishda iborat bo'lgan psixik protsessdir. Xotira jarayoni oliy nerv funktsiyalari bilan bog'iqlik. Nerv sistemalari juda egiluvchan va tassurotarga beriluvchandir. Shuning uchun bolalarda vaqtli bog'limishlar hosil bo'ladi. Ashula, ritmli she'r, qiziqarli holatlar chuquq tasir etadigan narsalar beixtiyor esda qolaveradi. Nerv sistemasini yangi qo'zg'aluvchan bo'lgani uchun vaqtli bog'lanishlar beqaror bo'ladi, yani mustahkam bo'lmaydi. Shuning uchun tez unutadilar. Bolalar katta bo'lishgan sari, nutqlari rivojlangan sari ular o'zlariga kerakli narsalarnigina esda olib qoladigan bo'ladi. Ularda mexanik esda saqlab qolish, mantiqiy esda saqlab qolish maktab davri yaqinlashgan sari ko'rindi.

Maktabgacha davrdagi bolalar eshitiganlardan ko'ra ko'rganlarini yaxshi eslab qoladi. Emotsional xotira ham rivojiana boshlaydi. Maktabgacha davrdagi bolalarda tafakkur tez rivojlanadi. Birinchidan, turmush tajribalari oshadi, ikkinchidan nutq rivojlanadi, uchinchidan, mustaqil, erkin harakatlar qila olish imkoniyatlari va boshqacha tafakkur realligi nutqda ko'rindi. Bu nima? Qanaqa? savollarga javob oladi. Maktabgacha davrdagi bolalarda xayolning rivoolanishi uchun bolaga turmush tajribasi, tasavvurlar zahirasi hamda juda ko'p bilmalar kerak

bo'ladi. Tajriba esa bolaning tashqi olamdag'i narsa va hodisalarini o'zi ko'rsatishi, voqeqlik hamda turli sohalarga doir tasavvur hosil qilishi, katta odamlar bilan keng munosabatda bo'lishi natijasida ortib boradi. Shunday qilib xayol maktabgacha yoshdag'i bolalarning taraqqiy etishlarida katta o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdag'i davrdagi o'qish birinchi kundan boshlab bolalardan xayol qilish qobiliyatining xususan tiklovchi xayol yaxshi o'sgan bo'lismi talab qiladi.

Maktabgacha ta'llimda «metod», «kmetodik» va «texnologiya» tushunchalari keng qo'llaniladi. Hatto, mazkur tushunchalalar mohiyatini tavsiflashda xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, mutaxassislar o'tasida ham ko'pgina tortishuv, bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Ammo adabiyotlarni tahsil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali tushunchalarning aniq ta'rifini shakllantirish mumkin. Ta'llim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'lan-gan maqsadlarga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'llim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'llim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatti amalga oshirish yo'lli, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'llim metodini hosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo'lli deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldinda ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'ni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish, yo'llari: oilada o'rgatish, maktabgacha ta'llim taskilotida o'rgatish, pedagog yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Unga o'xshash maktabgacha ta'llimda ma'llum bir chet tilini o'rgatishda ham yuqoridaqiga o'xshash yo'llardan foydalananish mumkin. Shu yo'llardan foydalanih, harakatni amalga oshirishda turli-tuman metodlar qo'llaniladi. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalanih. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariv o'zlashtirish operatsiyalarining

yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Shunga ko'ra ta'ilim metodlari bilan bog'liq eng asosiy tushunchalarning izohlarini quyida ko'rib chiqamiz Metod – (grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahlq usuli ma'nolarini anglatadi) tabiat va ijtimoiy hayot hodislarini bilish, tadqiq qilish usuli, faliyat, harakatning yo'l, usuli yoki qiyofasi, shakl, ko'rinishidir. Ta'ilim metodi – pedagogning bolalar bilan muntazam qo'llaydigan, bolalarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantrish, ilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalananish imkonini beruvchi i usuli hisoblanadi. Qolaversa, metod belgilangan ta'ilim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'ilim beruvchi va ta'ilim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir. Metodika – biror isjni maqsadga muvofiq o'kazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasidir. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tabiyavlyi ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabiladir. Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rgatish yoki amalga oshirish tartibidir. Uslub – biror narsha, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasidir. Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi hisobanadi. Yuqorida aytilganlardan ko'rinaladi, har bir ta'ilim metodi tarkibiga muayyan ta'ilim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ishharakat usullari, yo'llari kiradi. Amaliyotda ba'zan «metod» va «texnologiya» tushunchalari bir xil mazmunda qo'llaniladi. Aslida esa, metod – maqsadga erishish yo'l, usullari yig'indisi sifatida yaxlit ta'ilim jarayonining atohida tarkibiy qismi hisoblanadi. «Metod» bilan birga «usul» atamasi ham qo'llanilsa-da, biroq, bu so'zlar ham ayni bir xil ma'noga ega emas. Metod o'quv maqsadiga erishish yo'l bo'lsa, usul metodning alohida tononi yoki tarkibiy qismidir.

Shunday qilib, metakognitiv ko'nikmalar asosida bolalarni maktabga taylorlash orqali ularning aqliy qibiliyat, axloqiy va estetik hislari shakllanlib boradi.

2.3-§. Maktabgacha ta'ilim tashkilotining oila, maktab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari

Odatda tarbiyachilar ham bolaning oila a'zolari ham maktabgacha ta'ilimga qatnash bo'yicha o'zlarining boy tajribalariga ega hisoblandish. Bu tajriba ularning tarbiyachilar va ota-onalarning isjni hamkorlikda tashkil qilish masalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aksariyat xollarda, oila va tashkilotning roli bu so'z keng ma'nda bir-birdan ajratilgan. Ota-onalar farzandlarini tashkilot eshigida qoldiradilar va bu esnik ortida nimalar bo'lishi haqida juda oz bilidilar. Tarbiyachilar bolaga tashkilotda bo'lgan davri uchungina javob berishga ko'nikadilar. Buning uchun ulardan oilalar bilan o'zaro aloqa o'matish talab qilinmaydi. Shuning uchun tarbiyachilar ham ota-onalar ham qanday qilib axborot almashuv, hamkorlikda rejalashtirishni amalga oshirish, bolalar guruhida birgalikda ishlasni bilmasliklari mumkin va buning natijasida yangi tablalar oldida o'zlarini noqulay his qilishlari tabiiy. Bunday sharoitda tarbiyachilar va ota-onalarغا maktabgacha ta'ilming hayoti bilan hamkorlik masalasini tushuntirish birmuncha qiyin kechishi extimoldan xoli emas. Lekin o'z davrida buyuk faylasuflardan biri Seneka «Har qanday o'zgarish – o'zgarishni xohlashdan boshlanadi» degan edi. A.K. Markova xorijiy til o'rganishda motivatsiya shakkalanishining olti xil darajasini keltirib, har bir daraja to'rtta: motivatsion, maqsadga oid, emotsional va bilishga oid bloklarga bo'lib tasniflangan Ma'lumki, ota-onalar yig'ilishning turli xil ko'rinishlari: yo'l-yo'riq beruvchi, mastahat beruvchi, norasmiy va o'zaro qo'llab-quvvatlovchi mayjud. Har bir yig'ilish bo'yicha umumiy tasnif bersak.

Yo'l-yo'riq beruvchi yig'ilishlar seminar shaklida o'kaziladi. Qoida bo'yicha mutaxassis chetdan chaqirladi va uning yordamida ota-onalarning qiziqishlari asosida tanlangan ma'lum mavzu muhokama qiliindi.

Ayrim mavzular, masalan bolaning o'sishi va rivojlanishi ma'rura tarzida ham taqdim etilishi mumkin. Boshqa mavzularni o'zlashish tajriba tariqasida amalga oshiriladi, bunda ota-onalar ayrim ko'nikmalar- masalan, munosabat, aloqa ko'nikmalarini egallaydi. Tashkilotda ota-onalar qo'mitasining rasmiy yig'ilishi bir yilda

to'rt marta o'tkaziladi. Bunday *yig'ilishlarning maqsadi*, axborot to'plash va ota-onalar o'tasida o'zaro fikr almashtishdir. Bu yerda ota-onalar ishtiroti bilan bog'liq uchrashuvlar, kechalar o'tkazish va boshqa tadbirlar rejalashtiriladi.

Ota-onalar *yig'ilishlari uchun mavzularni tanlashda ularga quyidagi ro'yxat taqdim etilishi mumkin:*

- bolanning o'sishi va rivojlanishi;
- qiyin xulq-atvorni qanday tuzatishimpossible;
- bolaning ovqatlanishi;
- bolalar kasalliklari;
- o'yin orqali o'rgatish;
- shaxsiy qadr-qimmat hissini rivojlanitirish;
- nutqni rivojlanitirish;
- o'yinchchoqlarni tanlash va h.k.

So'rov varaqasi bilan ishslash chog'ida ko'rsatilgan seminar mashg'uoltlari mazmunini batafsiroq ochib berish talab etiladi.

Masalan: «Bolaning xulq-atvornini shakllantirish metodlari» – bu seminarda sizning bolangiz sizga «yo'q» deb gapirsa yoki, misol uchun o'z tengdoshlari bilan yoqalashsa, unda qanday harakat qilish lozimligi kabi masalar muhokama qilindi. «Bolaning ovqatlanishi» – bu seminarda muhokama mavzui 3-5 yoshdagi boalarning ovqatlanishini tashkil etishga talab va bu yoshdagi bolalar qanday ovqatlarni xush ko'rishi masalasiga qaratiladi.

Shuni yodda tutish kerakki, mazmun qanchalik aniq ifodalangan bo'lsa, ota-onalar mazkur tadbir o'zlarini qiziqitradimi, degan savohni oson hal etadilar va bu narsa ularning muhokamaga qatnashish etimololini oshiradi.

Ota-onalar odatda ko'proq band bo'ladir. ularning ko'pchiligidan qulay vaqtini aniqlab, shunga mos xolda hamda tezda o'zgartirish mumkin bo'lgan tarzda jadvallar tuzish zarurdir. Agar maktabgacha ta'llim taskhilotida *yig'ilish* qulay vaqtda, yaxshi va zerikarli bo'lmay tashkil etilsa, ota-onalar yoki bolaning yaqninari abatta keladilar.

Bundan tashqari maktabgacha ta'llimda psixolog shtati ajratilgan bo'lib, bunda psixolog barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxs (pedagog, bola, ota-onsa) manfaati va uning har tomonlana garmenik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondoshadi. Psixologning xizmat ko'rsatish faoliyati maktabgacha ta'llim taskhiloti-

ning xozirgi zamон psixologiya fani yutuqlari bilan ilmiy - uslubiyat bo'yicha ta'minlashga, insonning shaxsiy va intellektual (akliy) jisutidan rivojlanishini diagnostika kilishga, ta'llim va tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlashga, eng muximi mayjud kamchilik va nuqsonlarning oldini olish(profilaktika)ga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

- ✓ Maktabgacha ta'llim psixologining ota - onalarga tavsiyalari:
- ✓ bolangizni dunyoqarashini boyitish maqsadida ko'proq xar xil voqealarga boy kitoblarni o'qib bering.
